

*O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH
VA TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI DAVLAT
QO'MITASI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI*

O'zbek va rus tillari kafedrasи

**MAXSUS FAKULTET TALABALARI
UCHUN
O'ZBEK TILIDAN QO'LLANMA**

TATU Ilmiy-uslubiy kengash muhokamasida tasdiqlangan
(7.05.2013 йил 11-sonli bayonnoması)

Mas'ul muharrir: S.X. Abdullayeva

Tuzuvchi: Radjabova Z.B.

Taqribchilar: f. f.n. dots. A.Rafiyev,

f.f.n. dots. M.X. Axmedova

Mazkur qo'llanma maxsus fakultet talabalariga mo'ljalangan bo'lib. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga yuqori malakali ofitserlar tayyorlashda boshqa fanlar qatorida ahamiyatga ega. U o'zbek tilini amaliy jihatdan o'rganish, ya'ni o'zbekcha nutqni o'stirish va ko'nikma hosil qilishga yordam beradi. Shuninggdck, kursantlarning ma'naviy-tarbiyaviy jihatini rivojlantirish hamda tarixiy-madaniy boyliklari bilan tanishtirishga hissa qo'shadi.

Qo'llanma materiallari asosida leksik boylik ortadi, o'zbekcha gap tuzish, bilim uchun gapda so'zlar tartibi, so'zlarni bir-biri bilan bog'lashdi quchimchalarini to'g'ri qo'llay bilishini bilib oladi. Harbiy mavzudagi matnlar mazmununini mustaqil o'qish va gapirib berish, matnlami tarjima qila olish, kundalik hayotda ko'p uchraydigan hujjatlarni yoza olish uchun ham nazariy, ham amaliy ma'lumot olishi mumkin.

SALOMLASHISH ODOBI

Salom salomatlik ma'nosini bildiradi. Qachon salomlashish kerak?

Aka-ukalarni, do'stлами ko'rganda salomlashish kerak. Jamoat joylariга borganingda salom berish lozim. Biror xonadonga borsangiz, salom berib kiring. Bir erda guruh bo'lib o'tirgan kishilarga salom beriladi. O'z uyingizga kelganingizda salom berib kiring. Oila a'zolaringizga salom berish shart.

Qabristonga, maqbaraga borganingizda ham salom berishni yodda tutish zarur. Kichiklar kattalarga salom beradi. Ovoz chiqarib o'qiyotgap, odamga salom berilmaydi. Imo-ishora bilan ham salom berish odobdan emas. Salom berayotgan kishi ochiq chehrali bo'lishi kerak.

1-topshiriq. Yangi so'zlar lug'atini tuzing.

2-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

3-topshiriq. Matn mazmunini gapirib bering.

KASB ODOBI

Kasb odobi- bu muayyan kasbdagi kishilarning xulq-atvorini xarakterlaydigan axloqiy me'yorlar, urf-odatlar, qoidalar shaklidir.

U yoki bu mutaxassislikka doir kasb odobi me'yoriga amal qilish, axloqan o'zini tutishning tashqi alomatlarini to'ldiradi. Masalan, pedagogning suhbatni, harbiy kishining fani tutishidagi aniqlik, puxtalik.

Ma'lumki, har qanday ishda muvaffaqiyat yuksak javobgarlikdan, mas'uliyatni his qilishdan, ishni puxta tashkil etishdan boshlanadi. Shunga ko'ra mutaxassisliklar ahloqiy talablarga rivoja qilishlari kerak. Masalan, shifokor insonning hayoti uchun fidokorona kurashishi, bemorga chin yurakdan hushyorlik bilan munosabatda bo'lishi talab etiladi. Harbiy aloqachi aloqani aniq, to'g'ri, o'z vaqtida yo'lga qo'yishi ham o'z zimmasiga olgan kasb odobiga aylangan bo'lishi zarur.

Harbiy kishidan esa sidqiuildan Vatav jhimoyasi uchun xizmat qilish, harbiy qonun-qoida asosida ishga munosabatda bo'lishh talab qilinadi.

Kasb odobi- faoliyat jarayonida shakilanadi. Odob-ahloq qabul qilin-gan taitib, o'zini tutish qoidalar jatni hisoblandi. Bunga soha kishilarining boshqa soha kishilari bilan munosabati-attrofdagilarga bo'lган munosabati, salomlashish odobi, jamoat joylarida o'zini tutish, kiyinish va h.k.lar kiradi.

1-topshiriq. Notanish so'zlar lug'atini tuzing va ularni eslab qoling.

2-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

3-topshiriq. Matn mazmunini ochib beruvchi savollar tuzing va og'zaki savollarga javob bering.

HARBIYCHA SALOM BERISH

Harbiycha salom berish aniq, mardona, qaddini rostlagan va harakat qilish qoidalariiga rioya qilgan holda bajariladi.

Harbiycha salom berish bosh kiyimsiz va bosh kiyim bo'lgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Harbiy xizmatchining qo'llari yuk bilan band bo'lsa, boshliq tomon boshni buriladi va salom beriladi.

Boshliqni quvib o'tishga to'g'ri kelgan taqdirda, undan bir qadam o'zish bilanoq salom berish kerak.

Qurol bilan safdan tashqarida turganda harbiycha salom berish tartib. qurolsiz holatdagi salom berish tartibida bo'ladi.

Karabin «elkaga» holatida bo'lganda esa harbiycha salom berish paytida o'ng qo'lning harakati davom etaveradi.

1-topshiriq. Matnni o'qing, unlilar talaffuziga e'tibor bering.

2-topshiriq. Undoshlar o'rtaida kelgan I unlisi ishtirok etgan so'zlarni ko'chirib, daftaringizga yozing.

3-topshiriq. O' - unlisi ishtirok etgan so'zlarni toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

HARBIY TA'LIM

Qurolli kuchlarning qo'shin turlari va maxsus qo'shinchalar uchun kadrular tayyorlash orqali harbiy ta'lim amalga oshiriladi. «Harbiy ta'lim» da ofitser va boshqa harbiy xizmatchilarning amaliy faoliyati uchun zarur bo'lgan fundamental bilimlar, ya'nii ijtimoiy fanlar, fizika, matematika, kimya va h.k., shuningdek, maxsus harbiy fanlar o'qitiladi.

Harbiy ta'limning paydo bo'lishi va rivojlanishi rivojlanishi bilan hamda harbiy san'atning rivojlanish tarixi bilan uzviy bog'liq. Harbiy ta'lim maxsi-ta'limning mustaqil sohasi va harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi sifatida pivi'o bo'lishi Yevropaning qator mamlakatlarida 17- asr oxiri va 20- asr boshlarda maxsus harbiy o'quv yurtlari tashkil etishi bilan bevosita aloqador.

Harbiy ta'limning eng yuqori bosqichi Oliy harbiy ta'limiga to'g'ri keladi. Bu ta'lim harbiy akademiya hamda ba'zi oliy bilim yurtlarida beriladi. Tinglovchilar ijtimoiy fanlar, operativlik san'ati, umumiy taktika, qo'shin turlari va maxsus qo'shinchalarining taklikalari, harbiy san'at, urush tarixi kabilarni o'rganadilar. Texnik jihatdan tayyorgarlikka jiddiy e'tibor beriladi. Bunda jangovar texnika-qurollarning taktik-texnik xususiyatlari, tuzilishi, ularni janglarda qo'llash va boshqalar o'rganishning aharniyati katta. Ommaviy qirg'in qurollari, ulardan saqlanish yo'llarini bilib olish, harbiy hamda jismoniy tayyorgarlik, chet tilirii o'qish masalalari harbiy ta'limning oliy bosqichida o'rganish ko'zda tutiladi.

O'rta harbiy-texnik va harbiy maxsus ta'lim texnik va maxsus bilim yurtlari tizimida amalga oshiriladi. Harbiy bilim yurtlarida malaka oshirish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, taktika, umumiy harbiy, umumiy ta'lim va umumtexnik fanlar o'rganiladi.

Boshlang'ich harbiy ta'limda oddiy harbiy xizmatchilarga siyosiy, harbiy va maxsus bilimlar beriladi. Shuningdek, amaliy malakani oshirish ko'zda tutiladi. Qurolli kuchlar Ustavi hamda quroq va jangovar texnika qismlari, ularni qo'llash haqidagi bilimlar boshlang'ich harbiy ta'limda beriladi.

1-topshiriq. Matnda uchragan notanish so'zlar lug'atini tuzing.

2-topshiriq. Matn mazmunini- yorituvchi savollar yozing, so'ng savollarga og'zaki javob qaytaring.

3-topshiriq. Q, H, G'-undosh tovushlari mavjud so'zlarni daftarinigiza ko'chirib yozing.

HARBIY O'QUV YURLARI

Qurolli kuchlarning barcha turlari, qo'shin va maxsus qo'shin turlari uchun komandirlar, siyosiy muhandis-texnik hamda maxsus kadrlar harbiy o'quv muassasalari orqali etkazib beriladi. Harbiy o'quv yurtlariга akademiya, olyi va o'rta harbiy o'quv yurtlari, shuningdek, olyi o'quv yurtlarining harbiy fakultetlari ofitserlar tarkibini tayyorlovchi va qayta tayyorlovchi turli kurslar kiradi.

Harbiy akademiyaga harbiy bilim yurtlarini bitirgan va qo'shinlarda amaliy ish, stajiga ega bo'lgan ofitserlar tanlab olinadi.

Olyi harbiy bilim yurtlarida Qurolli Kuchlarning har xil turlari, oo'shin va maxsus qo'shinlarda komandirlik, muhandis-texnik va boshqa rahbarlik lavozimlarini bajarish uchun maxsus ma'lumotga ega bo'lgan ofitserlar tayyorlanadi.

1-topshiriq. Matnni o'qib chiqing, q.h.o' tovushlarning falaffuziga e'tibor bering.

2-topshiriq. Matnda notanish so'zlar bo'lsa, ularning lug'atini dafia-ringizga yozing.

3-topshiriq. Matn mazmunini so'zlab bering.

MAXSUS FAKULTET

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, qisqa vaqt ichida Qurollı Kuchlar safiga yuqori malakali aloqachi ofitserlarni tayyorlash kuriimizning dolzarb masalasiga aylandi.

Prezident Farmonining ijrosi yuzasidan e'lon qilingan Vazirlar Mahkamasip'ng 1993-yil 13-maydagi qarori asosida «Maxsus fakultet haqidagi holat» ham ishlab chiqildi. Unga binoan Maxsus fakultetning birinchi va ikkinehi kurs talabalari oliy o'quv yuri talabalari hisoblanadilar.

Uchinchi kursga o'tganlaridan keyin, harbiy qasamyod qabul qilib, oliy o'quv yurtining kursanti mavqeiga ega bo'ladilar va Mudofaa Vazirligi ta'minotiga o'tadilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 12 avgust «Toshkent elektid'texnika aloqa instituti Maxsus fakulteti bazasida havo hujumidan mudofaa zenit raketachilari va radiotexnika qo'shiniqli ofitser-kadrlarni tayyorlasli haqida» gi qaroriga binoan fakultetning yangi tashkiliy shtat tuzilmasi ham tasdiqlandi. Unga asosan hozirda «Telekommunikatsiya» va «Radiotexnika» yo'nalishlari bo'yicha sakizta kafedra faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Maxsus fakultetning o'quv-moddiy bazasi ham tobora mustahkamlanib, takomillashib bormoqda. So'nggi yillarda «Radioaloqa» kafedrasining ikkita o'quv sinfiga Amerika Qo'shma Shtatlari «Xarris» firmasi radio stantsiyalari o'rnatildi, harbiy oliy o'quv yurtining Internet tarkibiga kirib borish imkonini yanada oshirish maqsadida, Vazirlar Mahkamasining ko'rsatmasi bilan NATOning «Tinchlik uchun hamkorlik» dasturi doirasida zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan maxsus o'quv sinfi tashkil etildi. Fakultetning mutaxassisliklar bo'yicha kafedralari harbiy qism va bo'limmalarida ishlayotgan barcha aloqa texnikalari va vositalari bilan deyarli to'liq ta'miniangan.

1-topshiriq. Yangi so'zlar lug'atini tuzing.

2-topshiriq. Matnga o'zingiz savollar tuzing, so'ng savollar asosida matn mazmunini gapirib beririg.

3-topshiriq. Qisqa, birinchi, oliy, radiotexnika, faoliyat, radioaloqa, radio iostajitsiya, hamkorlik, deyarli" so'zlaridagi so'z urg'usi qaysi bo'g'inga tushganini aniqlang.

HARBIY SAN'AT

Harbiy fanning eng muhim tarmog'i harbiy san'atni tashkil qiladi. U quruqlik, dengiz, havodagi harbiy harakatlarni tayyorlash va amalga oshirish nazariyasi va amaliyoti hisoblanadi.

Harbiy san'atning muhim sohalaridan biri strategiya bo'lib, u siyosat bilan bog'liq. Strategiya operativlik va taktikaning rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Taktika harbiy san'atning quyi bosqichiga kiradi. U harbiy bo'linma, qism va qo'shilmlarning jang qilish masalalari bilan shug'ullanadi. Strategiya hamda taktika oralig'idag: mavqeni tashkil qiladi. U harbiy operatsiyalarni tayyorlash va olib borish vazifalarini o'z ichiga oladi. Har bir Qurolli Kuchlari turi o'zining harbiy san'atini tashkil qiladi. Masalan, raketa qo'shinlarining harbiy san'ati, Harbiy-Dengiz san'ati, harbiy-muhandislik san'ati va h.k.lar. Ayrim davlatlarda «operativlik san'ati» termini o'rniда «katta taktika» yoki «kichik strategiya» tushunchalari ishlataladi. Ularning vazifasiga harbiy operatsiyalarni tayyorlash va olib borish masalalarini ishlab chiqish kiradi.

Harbiy san'at ishlab chiqarish va iqtisodiyotning darajasiga qarab rivojlanib boradi. Shuningdek, harbiy san'atning taraqqiyoti mamlakatning tarixiy rivojlanish xususiyati, milliy xususiyatlari va an'analarini, jug'rofiv sharoiti va boshqa faktorlar bilan bog'liq bo'ladi.

Qadimgi Sharq, jumladan Markaziy Osiyoda piyoda va otliq askarlardan tashqari jang aravalarj, fil va tuyalarda jang qiladigan qo'shin otryadlari bo'lgan.

1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

2-topshiriq. H, q, g' undoshlari ishtirok etgan so'zlarni toping va ularni birikma shaklida ko'chirib oling.

3-topshiriq. Berilgan savollarga yozma va og'zaki javob qaytaring:

- 1) Harbiy san'atni nima tashkil qiladi?
- 2) Strategiya nima? U nimaga ta'sir ko'rsatadi?
- 3) Taktika nima bilan shug'ullanadi? Qanday vazifalarni o'z ichiga oladi?
- 4) Qurolli kuchlar qanday harbiy san'atga ega?
- 5) Harbiy san'at nima bilan bdg'liq holda rivojlanadi?
- 6) Qadimgi Sharqda qanday qo'shin otryadlari bo'lgan?
- 7) Qurolli kuchlar tarkibi nimani beIgilagan?
- 8) Harbiy san'at nazariyasi paydo bo'lguncha nimalar o'tkazilgan?

HARBIY INTIZOM

Harbiy intizom deganda qonun va harbiy ustavlar bilan belgilangan tartib-qoidalarga barcha harbiy xizmatchilarning aniq, qat'iy amal qilishini tushuniladi. Mohiyatiga ko'ra harbiy intizom muayyan davlatning ijtimoiy tuzumiga bog'liq bo'ladi.

Amaliy intizomning umumiyligi va aniq qonun-qoidalari Qurolli Kuchlarning Intizom ustavida bayon etiladi. Har bir xizmatchi qonunlarga amal qilishi, harbiy qasamyod hamda harbiy ustav talablarini aniq, puxta bajarishi shart.

Harbiy intizomni saqlashda Qurolli Kuchlardagi siyosiy tayyorgarlik va tarbiyaviy ishlarni muhim rol o'yinaydi.

1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

2-topshiriq. Berilgan savollarga javob qaytaring:

- 1) Harbiy intizom deganda nimani tushuniladi?
- 2) Harbiy intizom nimaga bog'liq?
- 3) Intizomning qonun-qoidalari nimada bayon etilgan?
- 4) Harbiy xizmatchi nimani bajarishi shart?
- 5) Intizomni saqlashda qanday ishlarni muhim hisoblanadi?

O'ZBEKISTONNING JUG'ROFIY O'RNI, AHOLISI VA IJTIMOY TUZILISHI

O'zbekiston Osiyonning markazi va shimoliy qismlarida joylashgan. Shimol va shimoli-g'arbda Qozog'iston, janubi-g'arbda Turkmaniston, janubi-sharqda Tojikiston, shimoli-sharqda Qirg'iziston, janubda esa Afg'oniston bilan chegaradosh. O'zbekiston Markaziy Osiyoda joylashgan Qozog'iston va Turkmanistondan keyin uchinchi o'rinda turadi, ya'ni uning maydoni 447,4 ming kvadrat metrni tashkil qiladi. Aholisi jihatdan esa birinchi o'rinda bo'lib, hozirgi kunda aholinjng soni 25.000.000 kishi atrofida.

O'zbekistonning poytaxti - Toshkent shahri bo'lib, unda 100 dan ortiq millat vakillari yashaydi. O'zbekiston tarkibida bir avtonom respublika mavjud. Unine maydoni 165,6 kvadrat metrga teng keladi. Nukus - avtonom respublikaniнg poytaxti hisoblanadi. O'zbekistonda 12 ta viloyat mavjud.

O'zbekiston Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan bo'lib, hudoinding beshdan to'rt qismini tekisliklar, ya'ni Turon pasttekisligi ishg'ol qiladi. Sharq va janubi-sharqda Tyanshan va Hisor-oloy tog'lari tizimlarining tarmoqlari joylashgan. Tog'lar oralig'i bilan tekisliklar o'rtasi dehqonchilik uchun qulay joy hisoblanadi. Tekisliklar hamda tog' yon bag'irlari relefni, iqlimi, tuprog'i, o'simlik va hayvonot dunyosi bir-biriga o'xshaydi.

O'zbekiston iqlimi quruqligi, kontinental hamda issiqlik va yorug'likning ko'pligi bilan xarakterlanadi. Shimolning kattaroq qismi mo'tadil, janubi esa subtropik mintaqaga kiradi. Quyosh yil bo'yini baland ko'tariladi, > masalan, Toshkentda 72, Termizda esa 76 gacha ko'tariladi.

1-topshiriq. Yangi so'zlar lug'atini tuzing.

2-topshiriq. Matn mazmunini o'z so'zingiz bilan gapirib bering.

3-topshiriq. G', j, h undoshlari ishtirok etgan so'zlarni matndan aniqlang.

4-topshiriq. Ular yordamida gaplar tuzing va daftaringizga yozing.

QUROLLI KUCHLAR

Qurolli kuchlar davlatning qurolli tashkiloti hisoblanadi. Qurolli kuchlarning vazifasi, tuzilish tizimi, shaxsiy tarkibni o'qitish va tarbiyalash ijtimoiy va davlat tuzumiga bog'liq bo'ladi.

Qurolli kuchlar davlatning paydo bo'lishi va jamiyatning sinflarga ajralishi bilan bog'liq holda paydo bo'lgan. Quldarlik davatlarning armiyalari asosan harbiy yo'llboschilar yoki shohlarning drujinalari - posbonlari, erkina xalq lashkarlaridan iborat bo'lgan. Feodal munosabatlarning rivojiana borgani sari vassalliklar lashkarlari Qurolli kuchning asosini tashkil qilgan. Har bir feodal professional jangchi bo'lib, o'z qurolli otryadiga ega bo'lgan. G'arbiy Yevropada og'ir qurollangan otliq ritsarlar asosiy kuchga aylangan. Sharqda esa Qurolli kuch asosan og'ir va engil qurollangan otliq askarlardan iborat bo'lgan. 17- asrning 2-yannida shahar burjuaziysi' va byurokratik monarxiya doimiy milliy armiya tuzishga kirishadi. 18- asr oxirida Yevropa davatlari umum harbiy xizmat majburiyati joriy etilgan. Masalan, bu o'rinda Fran siya alohida namuna bo'lgan. 14- asr oxirlariga kelib rivojlangan davatlarda Qurolli kuchlar soni keskin ko'paydi.

Yevropa mamlakatlarining ko'pida kapitalizmning vujudga kelishi, yangi jango var texnikaning paydo bo'lishi, transportning rivojlanishi kadr tamoyili asosida tuzilgan armiya va harbiy-dengiz flotining yaratilishiga oli b keldi. 20-asrga kelib qurollanish poygasi avj oldi. Yirik davlatlar Qurolli kuchiari jadal ravishda ko'paya boshladi. Fan va texnikaning rivojlanishi bilan yangicha qo'shin turlari vujudga keldi.

Sho'rolar hukumati davrida vatanparvarlik, proletar internatsionalizmga asoslangan Qurolli kuchlar faoliyat ko'rsatdi.

Ikkinchi jahon urushi yillarda Qurolli kuchlar miqdori oshdi, sifati o'sdi. Qo'shinlar mexanizatsiyalashtirildi, motorlashtirildi. Bu davrda artilleriya, tanklar soni ko'paydi. Reaktiv artilleriya va ballistik hamda qanoqli raketalar paydo bo'ldi. Harbiy-havo kuchlari va Harbiy Dengiz floti yanada rivojlandi. Quruqlikdagi qo'shinlarda front yoki armiyalar vujudga keldi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin NATO kabi harbiy bloklar paydo bo'ldi.

1-topshiriq. Matnni o'qing va notanish so'zlarni aniqlang.

2-topshiriq. Matnga savollai tuzing va daftaringizga yozing.

3-topshiriq. Tuzgan savolhringiz asosida og'zaki javob bering.

O'ZBEKISTONNING QUROLLI KUCHLARI

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, O'zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etildi. 1991 yil 6 sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga asosan Mudofaa ishlari vazirligi tashkil qilindi.

Qurolli Kuchlar o'z faoliyatini: qonun ustunligi, markazlashgan boshqaruv va yakkaboshchilik, doimiy jangovar va safarbar holatdagi tayyorlik; fuqoralarning umumiy harbiy majburiyati; kollektiv xavfsizlik tizimini barpo qilish; harbiy intizomga rioya qilish; partiyasizlik, harbiy xizmatchilar va ularning Oiia a'zolarini ijtimoiy-xuquqiy hirrtoya qilishni ta'minlash asosida tashkil qiladi va amalga oshiradi.

O'zbekiston Qurolli Kuchlari Quruqlikdagi qo'shinlar, harbiy-havo kuchlari, Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari, maxsus va muhandislik-qurilish qo'shinlari nariida Milliy gvardiyadan iborat.

1-topshiriq. Matnni o'qib chiqing, so'ng qaratqich kelishigida kelgan so'zlarni daftaringizga yozing. Har bir so'zga savol'bering.

2-topshiriq. Matn mazmunini so'zlab bering.

QUROLLI KUCHLARNI KOMPLEKTLASH (TO'LDIRISH)

Qurolli kuchlarning shaxsiy tarkibi, muddiy va texnikaviy vositalar bilan ta'minlash Qurolli kuchlarni komplektlash, ya'ni qayd qilin-gan jihatlami to'ldirib borish kerak bo'ladi. Bu davrga va oldinga qo'yilgan maqsadga muvofiq amalga oshiriladi.

Qurolli kuchlarni komplekilashning asosiy qismlarini fuqaroni harbiy xizmatga olish uchun asos, harbiy xizmat muddati, armiya xizmatiga olinuvchilarini tanlash tartibi, armiyaga chaqiriluvchi kishi laming yoshi va armiya komandirlari tarkibi bilan ta'minlash usullari tashkil qiladi.

Qurolli kuchlami komplektlash tarixda turli xil usulda olib boril-gan: yollanish, ixtiyoriy, xalq ko'ngillilari, jalb qijish, harbiy majbu-riyat, harbiy burch. Qurolli kuchlami komplektlash ko'p davlatlarda majburiyat bo'lsa-da, ba'zi mamlakatlarda armiyani to'ldirish ko'ngillilarni yollash hisobiga amalga oshiriladi. Masalan, 1967 yil-dan beri Buyuk Britaniya qurolli kuchlariga harbiy xizmatchilarni fa-qat yollab olinadi.

1-topshiriq. Matnni o'qib chiqing, so'ng egalik qo'shimchasi mavjud bo'lgan so'zлarni daftaringizga ko'chirib yozing.

2-topshiriq. Texnika, qism, usul, mamlakat, harbiy burch, majbu-riyat so'zлari ishtirokida gaplar tuzing.

MILLIY GVARDIYA

Milliy gvardiya O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarining tarkibiy qismini tashkil qiladi. Bu gvardiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 23 yanvardagi qarori asosida tuzilgan. Milliy gvardiya Respublika Qurolli kuchlari va O'zbekiston xududida joylashgan sobiq Ittifoq Ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlar negizida yuzaga keldi.

Gvardiyaning asosiy vazifasiga O'zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti va xududiy yaxlitligi hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini muhofaza etish kiradi.

Milliy gvardiya bir qancha o'ziga xos vazifalar, jumladan, davlat tantana marosimlarida ishtirok etish vazifasini bajaradi. Shu maqsadda milliy gvardiya tarkibida faxriy qorovul rotasi tuzilgan.

Milliy gvardiya zaruriyat tug'ilganda, urush bo'lish hollarida barcha kuch va qo'shinlar bilan birgalikda ish olib boradi.

1-topshiriq. Matnda qaysi so'zlarda qaratqich va tushum kelishigi borligini aniqlang va daftaringizga ko'chiring.

2-topshiriq. Berilgan savollarga javob qaytaring:

- 1) Milliy gvardiya nimaning bir qismi hisoblanadi?
- 2) U qachon tuzilgan?
- 3) Milliy gvardiya nimaning negizida yuzaga kelgan?
- 4) Milliy gvardiyaning vazifasiga nimalar kiradi?
- 5) Yana qanday o'ziga xos vazifasi bor?
- 6) Qay vaqtarda boshqa qo'shinlar bilan ish olib boradi?

QO'SHIN VA UNING TURLARI

Qo'shin ikki ma'noga ega. Tor tarixiy ma'noda u urush xavfi tug'ilganda yoki harbiy yurish oldidan shahar, viloyatlarda to'plangan harbiy qismi, lashkar tushuniladi. Keng ma'noda esa ko'p sonli harbiy qismi, ya'ni korpus, armiyani yuritiladi.

Qo'shin termini zamonaviy qurolli kuchlar turlari, ya'ni strategik maqsadda raketa qo'shirlari, quruqlikdagi qo'shirlar, havo hujumidan mudofaa qo'shirlari;

-qo'shin turlari: motoo'qchi, tank, havo desanti, zenit raketa; artilleriya,

bombardimonchi avia, razvedkachi aviatsiya, radiotexnika, suv osti kemalari,

dengiz piyoda askarlari;

-maxsus qo'shirlar: aloqa, muhandislik, avtomobil, temir yo'l va shuningdek,

operativ va xududiy birlashmalarning harbiy kuch va vositalarining umumlashgan

nomlari (front, armiya qo'shirlari, Harbiy okrug qo'shirlari) ni ifodalashda

qo'llaniladi.

Qo'shin turlari qurolli kuch turlarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir qo'shin turi o'ziga xos qurol-yarog', jangovar texnika bilan ta'minlangani bilan xarakterlanadi. Ular harakatlarda o'z taktikasini qo'llaydilar. Har bir qo'shin turi Qurolli Kuchlar turining bosh qo'mondoniga bo'yusunadi yoki har bir qo'shin turi qo'mondon tomonidan boshqariladi. Odatda jang va operatsiyalarda qo'shin turlari qismi va qo'shilmlari o'zaro yaqin hamkorlikda harakat qiladi.

1-topshiriq. Savollarga javob bering:

- 1)Qo'shin so'zi qanday ma'nolarda ishlataladi?
- 2)Qo'shining qanday turlari bor?
- 3)Maxsus qo'shirlarga nimalar kiradi?
- 4)Qo'shin turlari nimaning tarkib qismi hisoblanadi?
- 5)Qo'shin turlari kim tomonidan boshqariladi?
- 6)Qo'shirlar qanday harakat qiladi?

2-topshiriq. Qaratqich kelishigida kelgan so'zlarni aniqlang va belgilil qaratqich kelishigini olgan so'zlarni bir ustunga, belgisizlarini ikinchi ustunga yozing.

HARBIY-HAVO KUCHLARI

Harbiy havo kuchlari Havo kuchlari dushmanning yadroviy Hujumiga zarba berish ya uning aviatsiya guruuhlarini yo‘q qilish uchun mo‘ljallangan. Harbiy Havo kuchlari quruqlikdagi qo‘sishnlarga hamda harbiy dengiz flotiga yordam beradi. Kerak o‘rinlarda tashish ishlari bilan shug‘ullanadi. Desant qo‘sishnlarini boshqaruv va aloqa tarmoqlari bilan ta’minlaydi. Uzoq masofaga uchuvchi aviatsiya tarkibiga bombardimonchi va raketa tashuvchi aviatsiya kiradi. U har qanday ob-havo sharoitida uzoq masofaga ucha oladigan strategik raketa tashuvchi va hujumchi samolyotlarga ega.

Front aviatsiyasi qiruvchi-bombardimonchi, qiruvchi, razvedkachi va maxsus aviatsiyaga ega. U og‘ir ob-havo sharoitida ham tovushdan tez ucha oladigan, qiruvchi-bombardimonchi, bombardimonchi razvedkachilar hamda jangovar va transport vertolyotlari bilan ta’minlangan.

Harbiy transport aviatsiyasi desant-transporti va maxsus aviatsiyadan iborat. • U turboreaktiv harbiy transport, katta radiusda harakat qiluvchi hamda turli yuk tashuvchi samolyotlarga ega.

Harbiy havo kuchlari jangovar mashinalarga ega. Ular yuqori tezlikda stratosfera balandligiga etib boradilar. Ular qudratli raketa-zambarakli quollar va eng yangi hozirgi zamon radioelektron asbob-uskunalar bilan ta’minlangan. Hozirgi paytda yangi samolyotlar belgilangan maydonda ucha oladi va belgilangan joyga qo‘na oladi. Tovushdan yuqori tezlikka ega bo‘lgan bu samolyotlar har qanday ob-havo sharoitida, hattoki tunda ham uzoq masofaga ucha olishi mumkin.

1-topshiriq. Matn mazmunini o‘z so‘zingiz bilan gapirib bering.

2-topshiriq. Matnda uchraganchiqish, o‘rin-payt hamda jo‘nalish kelishigidagi so‘zlarni daftaringizga Ico‘chirib oling.

3-topshiriq. Ni madan? Qayerdan? savoliga javob beruvchi so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

AVIATSIYA QUROLLARI

Harbiy samolyotlarga va boshqa uchadigan apparatlarga o'rnatiladigan yarog'-aslaha hamda ularni qulay ishlatish imkonini beradigan uskunalar aviatsiya qurollarini tashkil qiladi.

Aviatsiya qurollari samolyotlarga o'rnatiladigan quollarning barcha turlari, ularni mustahkam o'rnatadigan vositalar, boshqarish, nishonga olish, bomba tashlash uskuna va moslamalarini tashkil qiladi. Hisoblash uskunalar, aviatsiya aloqalari, maxsus yuklarga osadigan va yuk tashlaydigan uskunalar ham aviatsiya qurollari hisoblanadi. Shuningdek, samolyotlar va boshqa uchishi apparatlarida, ta'lim mashqlarida ishlatiladigan apparatlar, shatakka olinadigan nishonlar, de'sant uskunalarini aviatsiya qurollariga kiradi.

Aviatsiya qurollari o'q - dorining qo'llanishiga qarab: raketa, zambarak-pulemyot, bombardimon qiruvchi va maxsus turlarga bo'linadi. Raketalarning boshqariladigan va boshqarilmaydigan hillari bo'lib, ular zamonaviy samolyotlarning asosiy quroli hisoblana-di. Zambarak va pulemyotlar maxsus moslamalarga ega.

1-topshiriq. Yangi so'zlar lug'atini tuzing.

2-topshiriq. Matning mazmunini gapirib bering.

3-topshiriq. Matnda ishtirok etgani jo'nalish, o'rinn-payt kelishigini olgan so'zlarni aniqlang.

HARBIY-DENGIZ FLOTI

Harbiy-Dengiz floti dushmanning yerdagi muhim ob'ektlarini vayron qilishga qaratilgan. Raqibning kuchlarini, dengiz flotining bazalarini yo'q qiladi. Ular dushmanning dengizdag'i kommunikasiyasini izdan chiqaradi. HDF tasarrufidagi dengiz bo'yida joylashgan quruqlikdagi qo'shinga jangovar harakatlar olib borish uchun o'z desantlarini tushiradi.

Suv osti floti kuchlari- raketa, artilleriya, desantchilar va boshqa(maxsus) kichik kemalar bilan ta'minlangan.

Suv osti floti kuchlari asosan atom va dizel yoqilg'i qurilmalarga ega bo'lgan suv osti qayiqlari, qurolli raketalarga ega.

HDF raketa tashuvchi, razvedka va maxsus aviatsiyani o'z ichiga oladi. Qig'oqdagi raketa- artilleriya qo'shini- qirg'oq bo'yli qism va

bo‘limnalardan iborat. Ular raketali quriimalar va artilleriya quroslaslahalariga ega.

Dengiz piyodalari tarkibida dengiz hujumiga qarshi maxsus tayyorlangan desantlar, o‘qchilar, zenit qurilmalari, tanklar, jangovar mashinalari hamda bronetransportyorlar bo‘ladi.

1-topshiriq. Matnni o‘qing. So‘ng tarjima qiling.

2-topshiriq. Matn mazmunini ochib beruvchi savollar tuzing va og‘zaki javob qaytaring.

3-topshiriq. Matnda uchragan notanish so‘zlamni ko‘chirib oling.

CHEGARA QO‘SHINLARI

Chegara qo‘shinlari mamlakatning quruqlikdagi va dengizdagagi chegaralarini qo‘riqlash uchun mo‘ljallangan. Zamonaviy chegara qo‘shinlari chegaradagi dushmanni yo‘q qilish uchun har doim tayyor turadi. Ular chegara orqali hech kimning sezdirmay o‘tishiga yo‘l qo‘ymaydi. Chet el razvedkachilarining mahfiy ishlarini ilg‘ab olish, tartib buzuvchilarni ushslash chegarachilarining muhim vazifasidir. Qo‘shin Vatanimizning siyosiy, harbiy va iqtisodiy manfaatlarini himoyasini ta‘minlaydi.

Chegara qo‘shinlari zamonaviy qurollar bilan jihozlangan. Ulaming ixtiyorida avtomobillar, kemalar, samolyotlar, vertolyotlar, radio-muhandislik jihozlari bor. Yuksak siyosiy onglilik, doimo e’tiborli bo‘lish, mardlik va matonat, o‘z xizmatlarini vijdonan bajarish chegara qo‘shining burchi **hisoblanadi**.

1-topshiriq. Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

2-topshiriq. Matnda uchragan yangi va qiyin so‘zlar lug‘atini tuzing.

3-topshiriq. Savollar asosida matn mazmunini so‘zlab bering.

1) Chegara qo‘shinlari nimaga mo‘ljallangan?

2) Chegara qo‘shinlari tartib buzuvchilarni nima qiladi?

3) Chegara qo‘shinlari qanday manfaatni ta‘minlaydi?

4) Chegara qo‘shinlari qanday jihozlarga ega?

5) Chegarachilarining burchlari nimalardan iborat?

MARKAZIY OSIYO VA AMIR TEMUR DAVRIDA ARMIYA

Muntazam (armiya) qo'shin Markaziy Osiyoda quldorlik jamiyatida tashkil topgan. Qo'shining tarkibida piyoda otliq, urush aravalari, fil va tuyalar bor edi. Urush qurollaridan esa nayza, qilich, o'q-yoy mavjud bo'lgan. Harbiy-muhandislik, mudofaa ishlariiga alohida e'tibor berilgan. Markaziy Osiyoga tashqi hujumlar uzlusiz bo'lib turgani tufayli qadimdan erli xalqlar qal'a devotiarini mustahkamlaganlar hamda harbiy kuchlarini hamisha mukamma-lashtirishga majbur bo'lganlar. Sinfiy tabaqalanish rivojlanib borgani sari qo'shmlaming tuzulishiga zaruriyat tug'ilgan. Oqliq askarlar zodagonlarning vakillaridan iborat bo'lib, ular harbiy yurishlarda sovut kiyib, o'q-yoy, nayza, qilich, xanjar, so'yil taqib olishgan. Hokimning piyoda va otliq askarlari yollanma askarlardan tuzilgan. Ularni navkarlar deb atashardi.

Somoniylar davrida gvardiya -harbiy jihatdan chiniqqan yoshlarni tashkil qilgan. Ular saroya jalb qilinganlar. Bu vaqtida yoshlari (g'ulomlar) oddiy kiyim-bosh (zandoni) kiyar edilar. Keyinroq oddiy yuganli ot, 3-yili kamar (qorachuq), so'ng yaxshi kiyim-bosh va yulduz bilan bezatilgan yugan berilgan. Gunohsizlar 7-yili visoqbo-shi-chodir boshlig'i aimalini olishgan. Amalga erishgan kishi yonida to'rt g'ulom bo'lib, ular kumush bilan tikilgan baland qora kigiz qalpoq va qimmatbaho oyoq-kiyimga ega bo'lganlar.

Somoniylar davrida qo'shining asosiy qismi ko'ngillilar hisobiga ko'paygan.

Amir Temur davrida qo'shinlar saralangan jangchilardan tuzilgan. Maqsad har qanday sharoitda ham muvaffaqiyatlari jang olib borish bo'lgan. Qo'shin o'nlik, yuzlik, minglik va turman (10.000-20.000 gacha) lardan iborat bo'lgan. Ularni o'nboshi, yuzboshi, mingboshi va amirlar boshqarishgan. Harbiy yurishlar paytida oddiy askarlar 18 tasi bir chodir, har bir askar 2 ot, bir o'qdon, qilich, arra, yalov (bayroq), juvoldiz, bolta, kerki, 10 igna olgan. Qo'mondonlar vazifasiga ko'ra qurol-yarog' olishgan. Masalan, yuzboshilarda sovut, mingboshilarda dubulg'-, nayza kabilarga ega bo'lganlar. Amir Temurning shaxsiy soqchilarida gurzi, oybolta, cho'qmor, qilich bilan qurollanganlar, shuningdek, ular ustlariga yo'lbars terisini yopib yurishgan. Qo'shin tarkibida mohir qayiq yasovchilar, yonuvchi moddani irg'ituvchilar, qa'ua devorini teshuv-

chilar. tosh otar qurilmalarni yasaydigan ustalar bo'lishgan. Shuningdek, tog' sharoitida askarlar harakatini engillashtirib beradigan to'dalar ham mavjud bo'lgan.

Qo'shin 14 qismiga bo'lingan. Dushman qo'shini 40.000 dan ortiq bo'lsa. Amir temur o'zi qo'mondonlik qilgan Sharqda birinchi bo'lib Amir Temur o'qsochar qurolni ishlatgan deb tarixchilar guvoh beradilar.

1-topshiriq. Matnda uchragan notanish so'zlar lug'atmi tuzing.

2-topshiriq. Lug'at asosida matnni rus tiliga tarjima qiling.

3-topshiriq. Matnda uchragan egalik, kelishik qo'shimchalari ishtirok etgan so'z va birikmalarni aniqlab, daftaringizga ko'chiring.

QURUQLIKDAGI QO'SHINLAR

Quruqlikdagi qo'shinlar qurolli kuchlaming quruqlikdagi harbiy harakatlarda strategik va operativ-taktik topshiriqniga bajaruvchi turi hisoblanadi. U harbiy kuchning asosini tashkil etadi. Quruqlikdagi qo'shinlar o'z oldiga qo'yilgan jangovor topshiriqlarni mustaqil yoki qurolli kuchlaming boshqa turlari bilan birgalikda bajarish imkoniyatiga ega.

Quruqlikdagi qo'shinlar o't ochish, zarba berish qudratining kuchligi, yuksak manyovrchanligi, to'la jangovor mustaqillik xususiyatiga ega. Quruqlikdagi qo'shiniar ko'p davlatlarda raketa-yadro qurilmalari, jangovor texnika, aloqa va transport vositalari bilan ta'minlangan. Quruqlikdagi qo'shinlar raketa qo'shnulari, artilleriya, tank va motoo'qchi qo'shinlar, havo desanti hamda havo hujumidan mudofaa qo'shnulari, shuningdek, maxsus va muhandislik qo'shnulari, radiotexnika va aloqa qo'shnulari, avtomobil va boshqa turli xizmatlarni o'ziga qamrab olgan. Front orti hamda muassasalari ham quruqlikdagi qo'shnilar qatoriga kiradi.

Quruqlikdagi qo'shinlar qurolli kuchlaming qadimgi turi bo'lib, quldorlik davlatlarida piyoda va ottiq askarlar yoki faqat ularning biridan tashkil topgan topgan edi. XX asrga kelib, xususan, 60- yillarga kelib rivojlangan mamlakatlarda quruqlikdagi qo'shnillarda raketa-yadro qurollari bilan qurollantirishga etibor ortdi. Raketa qo'shnulari strategik maqsadda asosiy o'runga chiqib oldi va u Quruqlikdagi qo'shnarning eng muhim turiga aylandi.

1-topshiriq. Notanish so'zlar lug'atini tuzing.

2-topshiriq. Matni rus tiliga tarjima qiling.

3-topshiriq. Matnda uchragan sifatlarni toping va qanday sifat ekanligini aniqlang.

BRONETANK QO'SHINLARI

Bronetank qo'shinlari quruqlikdagi qo'shinlardan biri hisoblanadi. U tanklar, o'zi yurar artilleriya moslamalari, bronetransportyorlardan tashkil topgan bo'ladi. Bronetank qurollari tez harakat qila olishi, kuchli o't ochishi, zirhliligi (bronligi) bilan o'z qudratini zarba berishda ko'rsatadi. Urush yillari tank va boshqa jangovar mashinalaming soni, vazifasi va tajribasiga qarab bronetank qo'shinlarini tashkil qilish o'zgarib turdi. Urush davrida alohida tank, mexanizatsiyalashgan korpuslar muhim o'rinni tutdi. Keyinchalik tank armiyalari tashkil etildi. Fan va texnikaning hamda og'ir sanoatning taraqqiyoti bronetank qo'shining jangovar qudratini yanada oshirmoqda. Hozirgi davrda qudratli raketalar bilan qurollantirilgan.

1-topshiriq. Matnda ishlatalgan sifatlarni aniqlang va rus tiliga tarjima qiling.

2-topshiriq. Kuchli, zirhlili, jangovar, muhim, og'ir, qudratli kabi so'zlardan sifatning qiyosiy va kuchaytiruv darajalarini yasang. Ular ishtirokida birikma yoki gaplar tuzing.

3-topshiriq. Matn mazmunini gapirib bering.

MOTOQ'CHI QO'SHINLAR

Motoo'qchi qo'shinlarni motorlashtirilgan o'qchi qo'shinlar deb ham yuritiladi. U quruqlikdagi qo'shinlar tarkibiga kiruvchi qo'shin turlari dan biri hisoblanadi.

Motoo'qchi qo'shinlar avtomat, pulemet, tankka qarshi granotomet, reaktiv snaryadlar, minometlar, artilleriya qurollari, tank, bronetransporter va bronemashinalar bilan quronanadi. Bu qo'shin raketalarga ham albatta ega.

Motoo'qchi qo'shinlar tarkibiga muhandislik, aloqa, kimyo va boshqa maxsus qo'shin bo'limlari ham kiritiladi. Hozirgi zamон motoo'qchi qo'shinlar diviziya, si barcha quroli va vositalari jihatdan boyidi.

Motoo'qchi qo'shinlar hujumda boshqa turdag'i qo'shinlar bilan hamkorlikda ish ko'radi. Mustaqil ravishda yadro quroli, aviatsiya va artilleriya zarbasidan keyin tezlik bilan jangovar holatda harakatlanadi. Qo'shinlar mudofaaga o'tgan vaqtida, yadro quroli aviatsiya va artilleriya zarbasidan keyin barcha individual qurollardan o't ochadi. Mudo faaning dastlabki chiziqlaridayoq dushmanga katta talofot berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Egallagan pozitsiyasini qo'lда tutib turish va shiddatli qarshi hujum uun qulay sharoit yaratadi.

1-topshiriq. Matnni o'qing va olmosh so'zlarni toping.

2-topshiriq. Ularning turlariga ko'ra ajratib daftaringizga ko'chiring.

3-topshiriq. Matnga savollar tuzing va savollarga og'zaki javob qaytaring

ARTILLERIYA

Artilleriya frantsuzcha so'z bo'lib, tayyorlamoq, shaylamoq ma'nosi ni bildiradi. Artilleriya quruqlikdagi qo'shin turi hamda u harbiy-dengiz va harbiy havo flotidagi qurol sifatida ahamiyatga ega.

Quruqlikdagi Armiya qo'shinidagi artilleriya to'pi reaktiv yoki o'zi yurar artilleriya qurilmalari, razvedka va aloqa vositalari hamda o'tni boshqarish asboblari bilan quronangan bo'lim, qism va birlashmalardan iborat. U urush maydonida dushman askarlari va o't ochish qurollarini yo'q qilish, ishdan chiqarish, er ust'i va havodagi kuchlar, ya'ni o'zi yu-

rar artilleriya to‘plari, tanklar, samolyotlar va boshqalami yo‘q qilishda ishlataladi. Shuningdek, u mudofaa inshoatlarini buzish, tank va piyoda askarlar uchun yo‘l ochib berish vazifasini bajaradi.

Artilleriyaga quroq tariqasida otish qurollarining barchasi, masalan, karabin, avtomat, pistolet, to‘p, minomyotlar kiradi. O‘q -dorinlang hamma hillari, nishonga olish asboblari va havo razvedkasi vositalri ham artilleriya qatoriga kiradi.

Havo artilleriyasi ballistik va taktik xususiyatiga ko‘ra zambarak, gaubitsa, tankka qarshi minomyot, reaktiv va zenit (havo) artilleriyasiga bo‘linadi.

Quruqlikdagi artilleriya er usti, zenit va maxsus artilleriyaga ajratiladi.

Ballistik xususiyatiga ko‘ra artilleriya qurollari nishonga to‘g‘ri otuvchi-pushka, va qiyalab otuvchi to‘plar-minomyot, gaubitsa va mortiralarga bo‘linadi.

Qadim zamonda Xitoy, Yevropada otadigan (irg‘itadigan) mashinalar bo‘lgan. Amir Temur qal’alarni zabit etishda tosh otadigan shunday mashinalar qo‘llagan. O‘zbek xon va amirlari qo‘sishinlarida to‘pchilar bo‘lgan. 14- asrdan boshlab esa poroxdan foydalanishga o‘tilgan 15-asrغا kelib to‘plar mis va bronzadan ishlab chiqarildi. Keyinroq mustaqil qo‘sish turiga aylandi. Artilleriya borgan sari takomillashdi va operativ-taktik tezkorlikni ta’mindadi. Tankka qarshi kichik va o‘rta kalibrli zenit artilleriyasi, hujumchi va qiruvchi samolyotlar qurallanadigan aviatsiya artilleriyasi kabi turlari vujudga keldi.

Ikkinci jahon urushidan keyin texnika jihatdan qurallanish yangilana boshlandi. Strategiya va taktik xarakterdagi raketa qo‘sishinlari vujudga keldi. Shu tariqa rivojlangan mamlakatlarda raketa-yadro quroli buniyodga keldi.

1-topshiriq. Matnda qanday olmoshlar borligini aniqlang va ularga yozma savol bering.

2-topshiriq. Quroq, artilleriya turi, bo‘lim, dushman askarlari, o‘zi yurar to‘p, piyoda askarlar, tank kabi so‘zlar bilan olmoshlar ishtirokida gaplar tuzing va daftaringizga yozing.

3-topshiriq. Matn mazmunini gapirib bering.

AVTOMAT QUROL

O‘q otadigan qurolni avtomat qurol deb ataladi.

Avtomat qurol ikki xil imkoniyatga ega: 1. Uzluksiz. 2. Yakka o‘q otish.

Avtomat qurol 19- asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lgan. U ikkita turga bo‘linadi:

- avtomat
-) pistoletlar
- pistolet
-) pulemyotlar.

Avtomat pistoletlar- yaqin masofaga, ya’ni 50 metrga o‘q otadigan qurol. Pistolet-pulemyotlar esa 300 metr masofada joylashgan dushmaniga zarba bera oladi.

Pistolet-pulemyotlarning 1941 yilda chiqarilgan turi bittalab va uzluksiz o‘q otishi mumkin. 1943 yilda chiqarilgan turi esa faqat uzuluksiz o‘q ota oladi.

Avtomat miltiqlar o‘zi o‘qlana oladi va o‘zi otiluvchan hisoblanadi. Ular 600 metr uzoqlikda nishonga qarata bittalab o‘q otishga mo‘ljallangan. O‘q bittalab otilganda 25-30 ta o‘q otish mumkibir bo‘ladi. Qo‘l pulemyotlari esa 800 metr masofadagi dushmanga qarata minutiga 120 donagacha o‘q otish imkoniyatiga ega.

Stanokli pulemyotlar kuchli qurol hisoblanadi. U minutiga 250 tacha o‘q otadi.

Uning o‘qi 1000m. hatto 2-2,5 km uzoqlikda joylashgan dushman askarları va o‘t ochish vositalariga zarba berishi mumkin. Shuningdek, u pastroq uchuvchi samolyotlarga ham zarba bera olish kuchiga ega.

Pulemyotlarning yirik kalibrli turi tank va samolyotlarga o‘rnataladi. Uning kalibri 12,7-15 mm ni tashkil qiladi. Kalibri 20 va undan katta millimetrlı pulemyotlar avtomat to‘p deb yuritiladi. Ular asosan havodagi nishonlarga zarba berishda mo‘ljallangan.

1-topshiriq. Matndan sonlarni toping va ularni turiga qarab ajratib daftaringizga ko‘chiring.

2-topshiriq. Matnga savol tuzing va mazmunini gapirib bering.

AVIADESANT TANKI

Jangovar mashinalarning bir turi hisoblanuvchi aviadesant tanki turli maqsadlarda xizmat qiladi. U butunlay zahrlangan, ixcham, har qanday sharoitda ham engil harakat qiladi. Shu sababli uni engil tank deb atashadi.

Aviadesant tankidan jang jabhalarida, razvedka ishlarida foydalaniadi. Bunday tanklar birinchi marta 1936 yili Kiyev manevrida paydo bo'lgan. 1939-1945 yillarda II-jahon urushi davrida AQSh va Angliya aviadesant tankini ishlab chiqargan. Uning og'irligi 7-8 tonna, zambahragining kalibri 37-40 mm, zirhi 38 mm gacha bo'lgan. Yengil tank soatiga 55-60 km tezlikda yura olgan.

Zamonaviy aviadesant tanklari mukammallashtirilgan. Ular bimalol aylana o'ladicidan turli zambarak va pulemetlar bilan ta'minlangan. U dushmanning po'lat yoki alyumin zirhli o't ochish vositalariga hamda jonli kuchlariga zarba bera oladi.

1-topshiriq. Matnda uchragan qiyin so'zlarni ko'chirib oling va rus tiliga tarjima qiling.

2-topshiriq. Matnni tarjima qiling.

3-topshiriq. 1936-1939 -1945 yillar 7-8 tonna 37-40 mm, soatiga 50-60km, 38 mm gacha kabi sonlar ishtirokida gaplar tuzing.

MINOMYOT

Artilleriya qurollaridan biri minomyot bo'lib, u mina irg'itgich degan ma'noni bildiradi. Minomyot silliq stvolga ega. U asosan dushmanga tepadan mina tashlash, tabiiy to'siqlardan minani oshirib otishga mo'jallangan.

Minomet ochiqlik hamda transheya, okopdag'i dushman kuchlariga zarba beradi. O't ochish vositalarini tor-mor qilishda ishlataladi. Uning artilleriya qurollaridan farqi bor, ya'ni tuzilishi jihatdan oddiy, engil. Minomyotning snaryadi (minasi) egri chiziq bo'ylab harakat qila oladi. Undan tutovchi, oskolkali, yondiruvchi va fugas minalar otiladi.

Minomyotni rus qo'shiniar birinchi marta rus-yapon urushida qo'llaganlar. Ikkinci jahon urushida minomyot keng ishlatilgan. Hozirgi paytda turli davlatlarda 8 mm. dan 240 mm .gacha kalibrli minomyotlar mavjud. Ularning otish masofasi 2,5 km. dan 10 km gacha bo'radi. Snaryadining og'irligi 3 kg. dan 130 kg. gacha. Jangovar holatdagi og'irligi 36 kg. dan 3600 kg. gacha etadi. Reaktiv minalarini otish uchun reaktiv minometlar ishlatiladi. Ikkinci jahon urushi yillarida bunday minomyotlarni «katyusha» deb atashgan.

1-topshiriq. Savollargajavob bering.

- 1) Minomyot qanday ma'noni bildiradi?
- 2) U nimaga mo'ljallangan?
- 3) Minomyot nimalarga zarba beradi?
- 4) Artilleriyadan farqi nimada?
- 5) Qanday minalar bor?
- 6) Birinchi marta kimlar qo'llagan? Qachon?
- 7) Qanday kalibrli minomyotlarni bilasiz?
- 8) Reaktiv minalar nimalarda ishlatiladi?

2-topshiriq. Matnda qo'llanilgan **silliq**, **tabiiy**, **ochiqlik**, **oddiy**, **engil**, **egri**, **oskolkali**, **jangovar**, **keng**, **reaktiv** kabi so'zlar predmetning qaysi jihatini belgilab berishini aytинг va daftaringizga ko'chirib oling.

3-topshiriq. Matnda sonning qanday turlari ishtirok etganini aniqlang.

GRANATA

Granata portlovchi, ya'ni zaryadli snaryadlarning umumiyligi nomi hisoblanadi.

Granatalar dastlab qo'l bilan irg'itilgan. Bunday granatalar 16-asrda yuzaga kelgan. 17-asrga kelib artilleriya granatalari paydo bo'lgan. Dastlabki granatalarda zaryad sifatida yorituvchi yoki yondiruvchi moddalar ishlatilgan. Keyinchalik porox qo'llanilgan.

Hozirgi davrda esa asosan trotil deb ataluvchi portlovchi moddadan foydalilaniladi. Granatalarning korpusi po'lat yoki po'latsimon cho'yandan yasaladi.

Granatalar portlash ta'siriga ko'ra portlanuvchi, parchalam;vchi-fugas, fugas granatalarga bo'lindi.

Granata dushmanning jonli kuchlariga va texnikasiga shikast etka-zish uchun mo'ljanlangan. Granataning fugas turi mudofaa istehkomlariga portlovchi zaryad gazi kuchi bilan vayron qilish hamda jonli kuchlarni yo'q qilishda ishlataladi.

Parchalanuvchi- yondiruvchi granatalar kichik kalibrli zenit a'rtilleriyasida qo'llaniladi.

Tankka qarshi qo'l bilan irg'itiladigan granatalar ishlataladi.

Granatalar mehanizimining tuzilishiga ko'ra tez va ma'lum vaqt dan keyin portlaydigan granatalarga bo'linadi.

Zarb ta'sirida tez portlaydigan granatalar tank, engil pana joylarni yo'q qiiishda hamda o'q otish nuqtalarini vayron qilish maqsadida ishlataladi. Pana joylarni hujumga olinganda ma'lum vaqt dan keyin portlaydigan granatalar qo'l keladi.

Harbiy qismlarda, bo'linmalarni askarlarni o'rgatish jarayonida mashq granatalaridan foydalilanadi. Demak, granatalarning asosan 3 xili, portlovchi, irg'itadigan va mashq granatalari mayjud.

1-topshiriq. Matndan qiyin so'zlarni toping va lug'at tuzing.

2-topshiriq. Matnni tarjima qiling.

3-topshiriq. Matnda uchragan sonlarni birikma shaklida daftaringizga ko'chiring va qanday son turiga kirishini aniqlang.

BRONETRANSPORTER

Jangovar zirhli (bronti) mashinani bronetransporter deyiladi. Uning bir necha turlari mayjud. Masalan, g'ildirakli, yarim o'rmalovchi, o'rmalovchi (ausenitsali) turlari amaliyotda katta o'rinn tutadi. Bronetransporterlar Jang maydonlarida motoo'qchi qo'shinlarni tashish, og'ir quro'l-yarog'larni tirkay oladiean hamda razvedka ishlarida qo'llanadi. Bronetransporterlar suvdan bemalol suzib o'ta olishlari bilan xarakterlanadilar.

Bronetransportyorlarning ochiq hamda yopiq turlari ham bor. Ularga 8-12 jangchi bemalol ketadi. Devorlarida maxsus teshiklar bo'lib, ular o'q otish uchun mo'ljalangan.

1-topshiriq. Matndan sifatlarni topping va ularning qanday sifat ekanligini aniqlang.

2-topshiriq. Mayjud sifatlarni qiyosiy darajaga aylantiring.

3-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

TO‘P (ZAMBARAK)

To‘p uzun stvolga ega bo‘lgan harbiy qurollardan bin. Uzoqqa otish va snaryadlarning katta tezlikda bo‘iishi bilan xarakterlanadi. U dushmanning o‘t ochish qurollariiga, tank, bronetranspertyorlar, samolyotlarni yo‘q qilishda, ya’ni kuchlarga zarba berishda qo‘llanadi. Qadimda Xitoy va Yevropada otadigan mashinalar bo‘lgan. Amir Temur qal’alarini zapt etishda tosh otadigan shunday mashinalardan foydalangan. O‘zbek xon va amirlari qo‘sishinlarida to‘pchilar bo‘lgan. To‘plar to‘pxonalarda saqlangan. Otish uchun poroxdan foydalanishgan. Dashtlabki to‘plar yog‘och taglikka o‘rnatilgan temir karnay shaklida bo‘lgan. O‘q sifatida temir, tosh parchalari ishlataligan. Keyinroq -14 asrda to‘plar mis va bronzadan quyila boshlangan. To‘p ishlab chiqarish keng yo‘lga qo‘yilgan.

1-topshiriq. Sifat va olmosh so‘zlarni matndan topping. So‘ng ularni guruhlarga ajrating.

2- topshiriq. Matnda uchragan sifatlar yordamida gaplar tuzing.

3- topshiriq. Matn mazmunini gapirib bering.

QO'SHINLARNING JANGOVAR TAYYORGARLIGI

Yuklangan jangovar vazifalarni har bir qurolli kuch turlari bajarilishi kerak. Buning uchun tayyorgarligi eng muhim holathisoblanadi.

Armiyada ommaviy qirg'in qurollarining mavjudligi ularni to'satdan va ommaviy qo'llanishi mumkinligi, qurolli kuchlar, qo'shinlarning jango var tayyorgarligiga yuksak talablar qo'yadi. Qurolli kuchlar doimo quruqlikda, dengizda va havoda faol jangovar harakatlar boshlashga shay bo'lib turishi kerak. Shu maqsadda hozirgi armiyalarda qo'shinlarni doimiy jangovar tayyorgarlikda turishi ko'zda tutiladi. Buning uchun shaxsiy tarkib malakasini oshirish, shuningdek, ularni qurollar, texnika vositalari va boshqa kerakli materiallar bilan ta'minlash zarur bo'ladi.

1- topshiriq. Matndan qayerda? savoliga javob bo'ladigan so'zlarni toping va daftaringizga brikma shaklida ko'chiring.

2-topshiriq. Matnni tarjima qiling.

GAUBITSA

Gaubitsa so'zi chex tiliga xos. U artilleriya quroli qatoriga kiradi.

Gaubitsa 10 mm va undan oriq kalibrli bo'ladi. U 65 daraja burchak hosil qilib nishonga otadigan quro). Shuningdek, u yuqoriga otish imkoniyatiga ega.

Gaubitsa dala mudofaa inshoatlari, ya'ni blindaj, pana joylar, yopiq transheyalami o'qqa tuta oladi. Gaubitsa stvoli (nili)katta bo'lgani uchun uning o'qi 12-13 kmgacha boradi. Bu oddiy kalibrli zambarakdan uzoqqa bormasligi bilan farq qiiadi.

1-topshiriq. Savollarga og'zaki javob qaytaring:

1. Gaubitsa qanday quro?
2. U qanday burchak hosil qilib ota oladi?
3. Gaubitsaning qanday imkoniyati bor?
4. U qanday joylarni nishonga oiiishi mumkin?
5. Uning o'qi qancha masofaga eta oladi?
6. Zambarakdan gaubitsaning farqi nimada?

2-topshiriq. Matndan sonlarni toping va ular qanday son turiga kirisini aytинг.

MAXSUS QO'SHINLAR

Maxsus qo'shinlar avvalo maxsus soha, ya'ni muhandislik, kimyo, radiotexnika, avtomobil, yo'l, aloqa va boshqalarga oid qo'shinlarni ifodalaydi. Maxsus qo'shinlar AQSh va boshqa rivojlangan davlatlar qurolli kuchlarning alohida qism va qo'shilmalarini ham bildiradi.

Urush paytlarida, shuningdek, terrorchilik va qo'poruvchilik operatsiyalarini amalga oshirish maqsadida dushman orqasiga tashlash uchun mo'ljallangan. Bu qo'shinlar, asosan, dushman mamlakatini va tilini biladigan parashyutchi diversantlardan tu:ziladi.

Topshiriq. Savollarga avvalo yozma, so'ng og'zaki javob qaytaring:

1. Maxsus qo'shinlarga qanday qo'shinlar kiradi?
2. AQSh va boshqa davlatlarda u nimani bildiradi?
3. Maxsus qo'shinlar nimaga mo'ljallagan?
4. Bunday qo'shinlar kimlardan tuziladi?

MUHANDISLIK QO'SHINLARI

Maxsus qo'shin tarkibiga kiruvchi muhandislik qo'shini barcha qo'shin turlarining jangovar harakatlariga keng miqyosda yordam beradi. U muhandislik inshootlari hamda vositalarini barpo etadi. Muhandislik qo'shinlari maxsus vazifalarni bajaradi. Masalan, tez fursatda ponton-ko'priklar qurish muhandislik qo'shinlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Muhandik-quruvchilik, maskirovkalovchi hamda sapyor qismlar ham muhandislik qo'shiniga kiradi.

Muhandislik qo'shinlari quruqlikdagi qo'shinlarning jangovar harakatlarini osonlashtiradi. Mudofaa inshootlarini yuzaga keltiradi. Kechuv vositalarini ham tayyorlab beradi. Hujum jarayonini amalga oshirishni ta'minlaydi.

Muhandislik qo'shinlari dushmanning istehkomlarini aniqlab berishda o'rni katta, chunki u dushmanni yakson qilishga yaqindan yordam beradi.

Muhandislik qo'shinlari dushman aviatsiyasi va artilleriya o'tidan yashirinadigan joylarni mustahkamlab beradi. Shuningdek, kuzatuv va komanda punktlari uchun inshootlar quradi. Qo'shin anniyani suv, energiya bilan doimo ta'minlash ishlarini ham bajaradi. Uning zimmasi-

ga minalardan joylarni tozalash hamda harbiy aerodrom qurish kabilar kiradi.

20-asr boshlarida aviatsiya va aloqa qismlari muhandislik qo'shinchilari tarkibiga kirar edi. Birinchi jahon urushidan keyin muhandislik qo'shinchilari armiyaning muhim tayanchiga aylandi. U mexanizatsiya-lashtirildi.

Yadro qurolining paydo bo'lishi bilan muhandislik qo'shining ahamiyati tobora oshdi. Jang maydonida keng miqyosda harakat qilishda muhandislik qo'shini olib boradigan tadbiri muhim o'rinni tutadi. Ayniqsa ommaviy qirg'in qurollaridan himoya qilishda muhandislik qo'shini tomonidan ko'rildigani tadbirning foydasi beqiyos hisoblanadi.

1-topshiriq. Matnda qanday ravish so'zlar ishtirok etganini aniqlang.

2-topshiriq. Aniqlangan ravishlarni turlariga qarab daftaringizga biringma holda ko'chirib oling.

3-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

RADIOTEXNIKA QO'SHINLARI

Radiotexnika qo'shini mamlakatni havo hujumidan mudofaa qilish qo'shinchilari, harbiy havo floti tarkibidagi hamda quruqlikdagi qo'shinchilari hisoblanadi. U dushmanni razvedka qilish, uning radiotexnik vositalariga halaqit berish hamda quroq, jangovar texnika, uchuvchi apparatlarni boshqarish uchun mo'ljalangan. Tashkiliy jihatdan radiotexnikaviy bo'linma va qismlarni o'z ichiga oladi. Radiotexnika qo'shinchilari ikkinchi jahon urushi arafasida paydo bo'lgan. U turli xil radiolokatsion stantsiyalardan foydalanadi.

1-topshiriq. Matnni gapirib bering.

2-topshiriq. Tarkibidagi, quruqlikdagi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

3-topshiriq. O'rinni ravishiga oid qanday so'zlar bilasiz? Ular ishtirokida harbiy mavzuda gaplar tuzing.

AVTOMOBIL QO'SHINLARI

Maxsus qo'shining bir turini avtomobil qo'shini tashkil qiladi. U qurol-aslaha, yonilg'i hamda oziq-ovqat tashish uchun mo'ljallangan.

Avtomobil qo'shinlari jang qilayotgan texnikani tashish va yaradorlarni evakuatsiya qilishda xizmat qiladi. U o'zining transporti bo'limgan qo'shinlarga ham xizmat qiladi.

Ikkinchи jahon urushi yillarida avtomobil qo'shinlari keng taraqqiy qildi. Avtomobil qo'shinlari keyinchalik ham juda ko'p yerda, masalan, Afg'onistondan jangchilarni o'z ona yurtiga qaytishida xizmati katta bo'lgan. Favqulodda holat yuzaga kelgan paytda ham bu qo'shin xizmatining o'rni alohida bo'lib kelmoqda.

Avtomobil qo'shinlari avtomobil bo'limmalari va qismlaridan iborat bo'ladi. U umumarmiyaning ma'lum qo'shin turi tarkibiga kiradi. Yoki alohida avtomobil qismlaridan tashkil topgan bo'lishi muungkin. Bu qo'shinni transport qo'shinlari deb ham ataydilar.

1-topshiriq. Matndan qiyin so'zlarni topingva lug'at tuzing.

2-topshiriq. Matn ma'zmunini lug'at yordamida gapirib bering.

3-topshiriq. Avval, keyin, hozir, ko'p qisqacha, kechikib so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

YO'L QO'SHINLARI

Yo'l qo'shinlari maxsus qo'shinnarning bir turini tashkil qiladi. Yo'l qo'shinlarining tarkibiga yo'l-komendantlik, yo'l qurilishi, ko'priksuzlik qismlari kiradi.

Yo'l qo'shinlarining vazifasi harbiy yo'llarni qurish, buzilgan yo'llami ta'mirlash va qayta tiklash kiradi. Shuningdek, yo'l qurishdan boshqa asosiy ishi ko'priklar qurish hisoblanadi.

Yo'l qo'shinlarining vazifasiga yo'l-komendantlik xizmatini o'tash ham kiradi. Yo'l qo'shinlari 1941-1945 yillari nemis fashistlariga qarshi olib borilgan urush davrida tuzilgan bo'lib, u sobiq Ittifoq paytida ancha keng taraqqiy qilgan.

Zaruriyat tug'ilganda yo'l komendanti ko'chalarda tartib-intizomni saqlashda fuqarolarga yordam beradi. Temir yo'l va suv transportida harbiy yuklar tashishda nazorat qiladi.

1-topshiriq. Qanday savoliga javob bo'ladigan so'zlami toping va daftaringizga ko'chiring".

2-topshiriq. Matnga savollar tuzing va ularga og'aki javob qaytar-ing.

TEMIR YO'L QO'SHINLARI

Temir yo'l qo'shinlari maxsus qo'shinnlar safiga kiradi. U urush bo'layotgan joylarda temir yo'llarni tiklash, qurish, muhofaza qilishni bajaradi. Bu qo'shinlar tashkiliy qo'shilma, qism va bo'linmalardan tarkib topadi. Birinchi marta Rossiyada 1851 yilda tashkil topgan. Peterburg-Moskva temir yo'lida temir yo'l ekspluatatsiyasi bo'yicha harbiy uyushmalar tashkil etildi va ular muhandislik qo'shinlar tarkibiga kiritildi.

Ikkinchi jahon urushi yillari (1941-1945)da temir yo'l qo'shinlari nemis fashistlari vayron qilgan 120.00000 km. ga yaqin temir yo'lni qayta tikladi. Qimmatbaho yuklarini evakuatsiya qildi. Harbiylarni o'z jangovar qismiga, oddiy fuqarolarni tinch yerga yetkazishda katta xizmat qilgan.

Temir yo'l qo'shinlari zamonaviy jangovar bilan ta'minlangan.

1-topshiriq. Nuqtalar e'rniga mos keluvchi ravishlarni qo'yib chiqing. tashkil topgan, tiklandi, bajaradi, taraqqiy qildi, tuzilgan bo'lib.

2- topshiriq. Matnga savollar tuzing, so'ng javob qaytaring.

MUDOFAA

Jangovar harakat turlaridan biri mudofaa hisoblanadi. Mudofaadan maqsad dushman kuchlarining hujumini qaytarish, ularga jiddiy talofot yetkazish, jangovor pozitsiyani qo'lda tutib turish, shiddatli hujumga o'tish uchun qulay sharoit yaratishdan iborat. Mudofaaga qachon o'tiladi? Qo'shinlar hujum qilish maqsadga muvofiq kelgan sharoit tug'ilganda mudofaaga o'tish zarur bo'lib qoladi.

Quruqlikdagi qo'shinlarning zamonaviy mudofaasi har jihatdan mustahkam hamda ommanaviy qirg'in qurollari, aviatsiya va artilleriya zarbalariga bardoshli bo'lishi kerak.

Mudofaaning mustahkamligiga uning yadro qurollari, artilleriya va aviatsiya zarbalariga chiday olishi muhim o'rinn tutadi. Mudofaa uchun tanlangan joy muxandislik nuqtai nazaridan qulayligi, qurol turlari, manyovr o'tkazish imkoniyati kattaligi bilan ham mudofaaning mustahkamligi belgilanadi.

Mudofaaga bo'linma va qismalarning o'tishi dushman bilan bevosita qarama-qarshi turgan bir sharoitda yoki dushman kuchlari bilan bevosita qarama-qarshi turmagan holatda ham amalga oshirilishi mumkin.

Mudofaa paytida kuch va vositalar tartibga solinadi. Shaxsiy tartib, qurolyarog'lar uchun pana joylar va okoplar tayyorlanadi. Shuningdek, zarba oqibatlarini tugatish va desantlarga qarshi tadbirlar olib boriladi va boshqa bir qator harbiy ishlar amalgaliga oshiriladi.

Harbiy texnikaning taraqqiyoti mudofaada yanada jadal harakat qilishni, joylarni muxandislik jihatdan yanada mustahkamlashni taqozo qiladi.

1-topshiriq. Berilgan matndan hozirgi zamon fe'lini toping.

2-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

3-topshiriq. Hozirgi zamon fe'llari ishtirokida gaplar tuzing.

MUDOFAA INSHOATLARI

Mudofaa inshoatlarini qurishdan maqsad o't ochish, Jang maydonidan kuzatish va qo'shinlarni boshqarish, shaxsiy tarkib, jangovor texnika hamda transport vositalarini himoya qilishdir.

Mudofaa inshoatları okoplar, transheyalar, o't ochish vositalari uchun maydonchalar, kuzatuv punktlari, pana joylar, blindajlar, maxsus o'q-dori omborlari, aloqa yo'llari va boshqalar kiradi.

Mudofaa inshoatlarini qurish qadimda ham o'ziga xos bo'lgan. Masalan, qadimda shahar va qo'rg'oni dushmanlardan himoya qilish" uchun chuqur xandaqlar qazilgan. Ular suvgaga to'ldirilgan. Qal'a va qo'rg'on devorlarida o'q otish uchun maxsus teshik (shinak) lar, burjlar bo'lgan.

Hozirgi davrda texnika va fan taraqqiyoti mudofaa inshoatlarini qurishda yan-giliklar olib keldi. Masalan, devorlar yadro quroldidan mustahkam himoya qilinishi uchun temir-beton devorlar yuzaga keldi.

1-topshiriq. Matnni o'qing va qiyin so'zlar lug'atini tuzing.

2-topshiriq. Matnni mazmunini gapirib bering.

3-topshiriq. O'tgan zamonda fe'l'i ishtirok etgan gaplarni ko'chirib yozing.

MUDOFAA DEVORLARI

Mudofaa devorlari aholini dushman hujumidan saqlash maqsadida qurilgan. Ular asosan dehqonchilik vohalari atrofida bo'lgan. Bunday devorlarni Osiyo, Yevropa va Afrikaning ko'pgina mamlakatlarida uch-ratish mumkin. Masalan, Buyuk -Xitoy hammaga mashhur.

Mudofaa devorlari Rossiya, Ukraina, Ozarbayjon, Dog'iston, Abxaziya mintaqasida ko'p uchraydi. O'zbekiston xududida Shaxrisabz, Kitob, Nurota, Marokanda shahri atrofidagi qishloqlar tevaragida mudofaa devorlarini mavjud. Ular yozma manbalarda «Tashqi devor», «Katta devor», «Kichik devor», «Ulug'ver devor», «Istehkomli viloyat devori» deb keltiriladi. Devorlarning maqsadi bosqinchilar hujumidan himoya qilish shuningdek, o'troq aholini bosqinchilar istilosiga yordam berib turgan ko'chmanchi qabilalardan ajratib, yakkalab qo'yish edi.

O'zbekistonda mavjud bo'lgan mudofaa devorlari qadimda, ya'ni 8-asr oxiri 9- asr boshlarida o'zaro tutashtirilgan. Ular Buxoro, So'g'd, Usrushona vohalarini, ya'ni butun mamlakatni o'ragan mudofaa tizimiga aylantirilgan.

1-topshiriq. Matndan o'tgan zamonda fe'lini toping.

2-topshiriq. Quyidagi fe'llardan aniq o'tgan zamonda fe'llarini yasang: qurilmoq, uchramoq, keltirmoq, yordam bermoq.

3-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

MUDOFAA OPERATSIYASI

Qo'shining muayyan reja asosida o'tkazadigan harakati mudofaa operatsiyasidir.

Mudofaa operatsiyasining maqsadi oldindan tayyorlangan muhandislik inshoatlariga joylashib, dushmanga katta talafot yetkazish hisoblanadi. Bunda raketa, yadro, aviatsiya hamda artilleriya zarbalaridan foydalaniladi. Jangovar jabhalarni saqlab qolish hamda hal qiluvchi qarshi hujumga o'tish uchun qulay sharoit yaratib berish ham mudofaa operatsiyasi hisoblanadi. Barcha mavjud qurollardan foydalanish mudofaa operatsiyasining muvaffaqiyatli olib borishga olib keladi. Bu vaqtda tez-tez manevr qilish zarur bo'ladi. Dushmanga qattiq zarba berish uchun mudofaa operatsiyasini puxta reja asosida o'tkazish kerak. Katta talafot dushmanga qarshi hujumga o'tish imkoniyatini yaratib beradi.

1-topshiriq. Matndan fe'l shakllari va qo'shma fe'llarni topib, daftarringizga ko'chiring.

2-topshiriq. Matnni gapirib bering.

MUDOFAA QOBILIYATINI MUSTAHKAMLASH

Davlat mudofaa qobiliyatining eng muhim qismi uning Qurolli Kuchlaridir. Ularning jangovar qudrati hamda bosqinchini qurolli mojarolar va urush boshlab yuborishdan tiyib, turish vazifalarini bajarishga tayyorgarlik darajasidan hamda mamlakat hududiga bosqinchilik qilimgan taqdirda oddiy qurol-yarog'larning har xil turlaridan foydalangan holda bosqinechini tor mor qilishdan iboratdir.

Bizning Qurolli Kuchlarimiz har qanday vaziyatda harakat qilishga tayyor turishi, mamlakatning jug'rofiv strategik mavqeini va hududining jug'rofik xususiyatlarini hisobga olgan holda ehtimol tutilgan bosqinchiga quruqlikda va havoda munosib zarba bera olish uchun jangovar salohiyatga ega bo'lmog'i zarur.

Qurolli Kuchlarning harbiy qudrati, jangovar qobiliyati ko'plab omillardan tarkib topadi.

1.Shaxsiy tarkibning miqdori va sifati. Bu sifat uning professional darjasasi, axloqiy - ruhiy qat'iyati, jismoniy tayyorgarligi va intizomi bilan belgilanadi.

2.Qurolli Kuchlar harbiy qudratining eng muhim qismi bo'lgan qurol yarog'lar va harbiy texnikaning miqdori va sifati masalasi hisoblanadi.

3.Harbiy infrastruktura bo'lib qurolli kuchlardan jangovar holatda foydalinishda uning roli beqiyosdir.

Qurolli Kuchlarni barpo etish yillarida boshqaruv va aloqa tizimi, harbiy, ichki va texnikaviy ta'minot, xilma xil qo'shin turlarini joylashtirish tizimi umuman shakllanadi.

4.Hozirgi sharoitda xavfsizlik faqat kollektiv bo'lishi mumkin. U hamfikr davlatlamining birgalikdagi harakatlari bilan ularning imkoniyatlarini birlashtirish bilan ta'minlanadi. O'zbekiston BMT. YeXHT bayrog'i ostida tinchlikni qo'llab

quvvatlash sohasida amalga oshiralayotgan har qanday tadbirlarda ishtirok etmoqda. 1992 yil may oyida MDH davlatlari o'rtaida shartnomaga tuzildi.

1994 yil iyul oyida O'zbekiston NATO ning «Tinchlik yo'lidagi hamkorlik» Dasturiga qo'shildi.

NATO mamlakatlamining tadbirlarida jumladan harbiy bo'linmalarning birgalikdagi mashqlarida qatnashish xuquqiga ega bo'ldi. Bu mammalakatimizning mudoafaa qobiliyatini yuksaltirishga yordam beradi.

1-topshiriq. Berilgan savollarga javob bering:

- 1) Milliy anniya nimanligi toptirish yo'lidagi muhim yutuq bo'ldi?
- 2) Qurolli Kuchlar nimaning muhim qismi?
- 3) Uning vazifasi nimadan iborat?
- 4) Qurolli Kuchlar har qanday vaziyatda qanday bo'lishi kerak?
- 5) Harbiy qudrat, jangovar qobiliyat qanday omillardan tashkil topgan?
- 6) 1994 yil iyul oyida O'zbekiston nimaga qo'shildi?
- 7) NATO mamlakatlarining tadbirlari nimaga yordam beradi?

2-topshiriq. Matnda qanday fe'l zamonlari ishtirok etganini va o'tgan zamon fe'lining qaysi turlari mavjudligim aniqlang. Fe'larni daf-taringizga guruhlarga ajratgan holda ko'chiring.

QUROLLI KUCHLARNING SAFARBARLIGI

Davlatning tinchlik davridagi qurolli kuchlarni urush davri holatiga o'tkazish Qurolli kuchlar safarbarligi hisoblanadi. Safarbarlik: natijasida qurolli kuchlar soni bir necha hissa ko'paytiriladi. Qurolli kuchlar safarbarligiga tinchlik davrida tayyorgarlik ko'rildi. Odatda safarbarlik urush boshilanishi, zaruriyat tug'ilib qolganda e'lon qilinadi.

Qurolli kuchlar safarbarligini muvaffaqiyatli amalgalashish uchun zaxiradagi harbiylar hamda qurol-yarog'larni to'liq va aniq hisobga olish shart. Safarbarlik xabarini tezlik bilan etkazish esa muhim hisoblanadi. Shuningdek, zaxiralarni hamda transport vositalarini yig'ishtirish ham o'ta ahamiyatli o'rinni tutadi. Ba'zan safarbarlik qurolli kuchlarning bior qismiga tegishli bo'lishi mumkin. Bu harbiy vaziyatga bog'liq bo'ladi.

Safarbarlik vaqtida Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan shaxslar harbiy xizmatdan bo'shatilmaydi. Harbiy xizmatga chaqirilgan shaxslar urush davri qonunlariga muvofiq belgilangan joyga o'z vaqtida etib bormasalar javobgarlikka tortiladilar. Shuning uchun harbiy xizmatga majbur kishilar belgilangan joyga ko'rsatilgan soatga yetib kelishilar majbur hisoblanadi.

1-topshiriq. Matn bilan tanishib chiqing, so'ng harakat nomlarini aniqlang.

2-topshiriq. Harakat nomlari qanday vazifa bajarganini aytib bering.

3-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

JANGOVAR SHAYLIK

Qurolli kuchlarning jangovar shayligi-qurolli kuch (qo'shin) laming o'ziga topshirilgan jangovar vazifani bajarishga tayyorgarlik darajasini aniqlovchi holat. Armiyalarning qurolli kuchlarida ommaviy qирг'in kel-tiruvchi qurollarni to'satdan va ommaviy ravishda qo'llanish imkoniyati mavjud. Bu qo'shingarning jangovar shayligiga yuqori talablar qo'yadi. Qurolli kuchlar har qanday sharoitda qayerda bo'lmasin, ya'ni quruqlikda, súvda, havoda bo'lishidan qat'i nazar faol harakatlar qilishga qodir bo'lishi lozim bo'ladi.

1-topshiriq. Matndan fe'l shakllarini toping va ularni turiga ko'ra daftaringizga ko'chirib oling.

2-topshiriq. Matn mazmunini gapirib bering.

JANGOVAR VAZIYAT

Jangovar vaziyat deganda muayyan joyda, ma'lum davrda jangovar harakatlarga ta'sir ko'rsatadigan omil va sharoitning majmuasi tushuni-ladi.

Jangovar vaziyat dushman kuchlarining holati, ya'ni tarkibi, ishg'ol qilgan o'rni, ko'zda tutayotgan maqsadi, shuningdek, qo'shining holati- ta'minlanish darajasi. Jangovar imkoniyatlar, qo'shiň qismiarining holatini ifodalaydi. Radiatsion, kimyoviy va baktiereologik vaziyatning xarakteri, yer sharoiti, joy-xududning iqtisodiyoti, yerlik aholining ijtimoiy-siyosiy tarkibi va kayfiyati ham jangovar vaziyatni belgilab beradi. Jangovar vaziyatni aniqlashda meterologik va iqlimga oid ma'lumotlar ham muhi'm o'rinn tutadi.

Jangovar vaziyatni belgilashda hamma turdag'i razvedka ma'lumotlari, kichik komandirlarning dokladlari, Oliy qo'mondon (shtab) axborotlari alohida ahamiyatga ega.

1- topshiriq. Matnda qanday sifatdosh so'zlar ishtrok etganini aniqlang.

2-topshiriq. Berilgan sifatdoshlar ishtirokida gaplar tuzing: **belgilaydigan, muhim o'rinn tutgan, ifodalagan, aniqlaydigan** so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

3-topshiriq. Matnga savollar tuzing va og'zaki javob bering.

JANGOVAR TREVOGA

Jangovar trevoga qo'shinlarni qisqa muddatli jangovar holatga keltiradi. Jangovar trevoga katta boshliq ko'rsatmasiga binoan beriladi. U og'zaki, aloqa vositalari hamda belgilangan shartli signallar yordamida e'lon qilinadi. Trevoga komanda berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Jangovar trevoga umumiy va qisman bo'lishi barcha qo'shinlaming jangovar shaylik holatini keltiradi.

Qisman trevoga orqali ayrim bo'linmalargagina tegishli bo'ladi.

Jangovar trevoga bo'lishi bilan qo'shin qisqa muddat ichida yig'ilishi kerak. Jangovar pozitsiya-o't ochish, start olishga tayyor bo'lishi lozim. Jangovar trevoga bo'yicha qo'shnlarga xabar berish, ularni toplash va jangovar harakat boshlash yashirinchha amalga oshiriladi.

1-topshiriq. Matndan qiyin so'zlarni toping va ularning lug'atni tuzing.

2-topshiriq. Matn mazmunini gapirib bering.

JANGOVAR NAVBATCHILIK

Jangovar navbatchilik jangovar vazifaning bajarilishi sanaladi.

Jangovar navbatchilik batalon komandiri tomonidan tashkil etiladi. U navbatchi kuchlar va vositalarga, topshiriqnari bajarishga javob beradi.

Jangovar navbatchilikni o'tash tartibi harbiy qism komandirming buyrug'iga ko'ra belgilanadi.

Shaxsiy tarkibning jangovar navbatchilikni o'tashga tayyorgarligi harbiy qism komandiri tomonidan tasdiqlangan reja asosida olib boriladi. Jangovar navbatchilik jangovar hisob-kitoblar, navbatchi smenalar tarkibida o'tkaziladi.

Jangovar navbatchilikka (jangovar xizmatga) oldindan tayyorgarlik ko'rildi. Navbatchi kuch va vositalar tayyorgarligi tekshiruvdan o'tadi. So'ng jangovar buyruq beriladi.

Jangovar navbatchilik paytida navbatchi kuch va vositalar komandirlari rahbarligida kompleks mashqlar o'tkaziladi. Bunda shtab boshlig'i tasdiqlagan jadvalga albatta rioya qiiinadi.

Jangovar navbatchilik o'tayotgan paytida majburiyatdan chalg'itadigan buyruq berish man etiladi.

Jangovar navbatchilik (jangovar xizmat) o'tayotgan vaqtida navbatchi smena shaxsiy tarkibni ruxsatsiz buzmasligi, bajarilayotgan ishga aloqasi yo'q ishlari bilan shug'ullanishi, navbatchilikni o'tash joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketishi mumkin emas.

Jangovar navbatchilikni tekshirish Mudofaa vazirligi Bosh shtabining boshlig'i, O'zbekiston Qurolli Kuchlari turlari qo'mondoni tomonidan belgilanadi.

1- **topshiriq.** Ravishlarni toping va ular qanday vazifada kelganini aniqlang.

2- **topshiriq.** Berilgan savollafga javob qaytaring:

1) Jangovar navbatchilik nima?

2) Kim navbatchilikni tashkil qiladi?

3) Navbatchilik tartibini kim belgilaydi?

4) Qachon jangovar buyruq beriladi?

5) Navbatchilik paytida kim rahbarligida, nimalar o'tkaziladi?

6) Navbatchilik paytida nima man etiladi? Nimalar mumkin emas?

7) Navbatchilikni tekshirish kim tomonidan belgilanadi?

KOMANDIR (BOSHLIQLAR)NING UMUMIY MAJBURIYATLARI

Komandir yakka boshliq sanaladi. U tinchlik va urush davrida unga ishonib topshirilgan harbiy qism (bo'linma) ning doimiy jangovar va safarbarlik shayligi, topshiriqlarning muvaffaqiyatli bajarilishi, harbiy intizom uchun javob beradi. Shaxsiy tarkibning jangovar tayyorgarligi, axloqiy-ruhiy holati, harbiy xizmat xavfsizligi uchun ham javobgar hisoblanadi. Shuningdek, komandir ichki tartib, quroq-aslaha, harbiy texnika"va boshqa moddiy vositalar ahvoli va ularni saqlash kiradi.

Komandir (boshliq) moddiy, tibbiy, moliyaviy, ijtimoiy huquqiy hamda maishiy ta'minotni tashkil etish javobgarligini ham his etishi kerak.

Komandir davlatning mudofaa sohasidagi siyosatini hayotga qat'iy va izchil tadbiq etishga, shaxsiy kasb tayyorgarligi va boshqarish uslubiyatini takomillashtirib borishga, kadrlar bilan ishslash hamda ixtirochilik ishlariiga rahbarlik qilishga majbur.

Komandir (boshliq) noharbiy xodimlarning mehnatini to'g'ri tashkil etishi, bunda u Mudofaa vaziri chiqargan buyruq va direktivalarga qat'iy amal qilishi talab etiladi.

1-topshiriq. Qaysi gaplarda qo'shma fe'llar mavjud. Aniqlangan fe'llarni daftaringizga ko'chiring.

2- topshiriq. Lug'at tuzing va rus tiliga tarjima qiling.

MUDOFAA

Jangovar harakat turlaridan biri mudofaa hisoblanadi. Mudofaadan maqsad dushman kuchlarining hujumini qaytarish, ularga jiddiy talofot yetkazish, jangovor pozitsiyani qo'lda tutib turish, shiddatli hujuinga o'tish uchun qulay sharoit yaratishdan iborat. Mudofaaga qachon o'tiladi? Qo'shinlar hujum qilish maqsadga muvofiq kelgan sharoit tug'ilganda mudofaaga o'tish zarur bo'lib qoladi.

Quruqlikdagi qo'shinlarning zamonaviy mudofaasi har jihatdan mustahkam hamda ommaviy qirg'in qurollari, aviatsiya va artilleriya zarbaligiga bardoshli bo'lishi kerak.

Mudofaaning mustahkamligiga uning yadro qurollari, artilleriya va aviatsiya zarbaligiga chiday olishi muhim o'rinni tutadi. Mudofaa uchun tanlangan joy muxandislik nuqtai nazaridan qulayligi, qurol turlari, manyoqr o'tkazish imkoniyati kattaligi bilan ham mudofaaning mustahkamligi belgilanadi.

Mudofaaga bo'linma va qismlarning o'tishi dushman bilan bevosita qarama-qarshi turgan bir sharoitda yoki dushman kuchlari bilan bevosita qarama-qarshi turmagan holatda ham amalga oshirilishi mumkin.

Mudofaa paytida kuch va vositalar tartibga solinadi. Shaxsiy tartib, qurol-yarog'lar uchun pana joylar va okoplar tayyorlanadi. Shuningdek, zarba oqibatlarini tugatish va desantlarga qarshi tadbirlar olib boriladi va boshqa bir qator harbiy ishlar amalga oshiriladi.

Harbiy texnikaning taraqqiyoti mudofaada yanada jadal harakat qilishni, joylarni muxandislik jihatdan yanada mustahkamlashni taqozo qiladi.

1-topshiriq. Berilgan matndan hozirgi zamon fe'lini toping.

2-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

3-topshiriq. Hozirgi zamon fe'llari ishtirokida gaplar tuzing.

MUDOFAA INSHOOTLARI

Mudofaa inshoatlarini qurishdan maqsad o't ochish. Jang maydoni dan kuzatish va qo'shinlarni boshqarish, shaxsiy tarkib, jangovor texnika hamda transport vositalarini himoya qilishdir.

Mudofaa inshoatları okoplar, transheyalar, o't ochish vositalari uchun

maydonchalar, kuzatuv punktlari, pana joylar, blindajlar, maxsus o'qdori

omborlari, aloqa yo'llari va boshqalar kiradi.

Mudofaa inshoatlarini qurish qadimda ham o'ziga xos bo'lgan. Masalan, qadimda shahar va qo'rg'oni dushmanlardan himoya qilish" uchun chuqur xandaqlar qazilgan. Ular suvga to'ldirilgan. Qa'a va qo'rg'on devorlarida o'q otish uchun maxsus teshik (shinak) lar, burjlar bo'lgan.

Hozirgi davrda texnika va fan taraqqiyoti mudofaa inshoatlarini qurishda yangiliklar olib keldi. Masalan, devorlar yadro qurolidan mustahkam himoya qilinishi uchun temir-beton devorlar yuzaga keldi.

1-topshiriq. Matnni o'qing va qiyin so'zlar lug'atini tuzing.

2-topshiriq. Matnni mazmunini gapirib bering.

3-topshiriq. O'tgan zamон fe'lι ishtirok etgan gaplarni ko'chirib yozing.

MUDOFAA DEVORLARI

Mudofaa devorlari aholini dushman hujumidan saqlash maqsadida qurilgan. Ular asosan dehqonchilik vohalari atrofida bo'lgan. Bunday devorlami Osiyo, Yevropa va Afrikaning ko'pgina mamlakatlarida uchratish mumkin. Masalan, Buyuk -Xitoy hammaga mashhur.

Mudofaa devorlari Rossiya, Ukraina, Ozarbayjon, Dog'iston, Abxa ziya mintaqasida ko'p uchraydi. O'zbekiston xududida Shaxrisabz, Kitob, Nurta, Marokanda shahri atrofidagi qishloqlar tevaragida mudofaa devorlarfi mayjud. Ular yozma manbalarda «Tashqi devor», «Katta devor», «Kichik devor», «Ulug'vor devor», «Istehkomli viloyat devori» deb keltiriladi. Devorlarning maqsadi bosqinchilar hujumidan himoya

qilish shuningdek, o'troq aholini bosqinchilar istilosiga yordam berib turgan ko'chmanchi qabilalardan ajratib, yakkalab qo'yish edi.

O'zbekistonda mayjud bo'lgan mudofaa devorlari qadimda, ya'nı 8-asr oxiri 9-asr boshlarida o'zaro tutashtirilgan. Ular Buxoro, So'g'd, Usrushona voхalarini, ya'nı bütün mamlakatni o'ragan mudofaa tizimiga aylantirilgan.

1-topshiriq. Matndan o'tgan zamon fe'lini toping.

2-topshiriq. Quyidagi fe'llardan aniq o'tgan zamon fe'llarini yasang: qurilmoq, uchramoq, keltirmoq, yordam bermoq.

3-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

MUDOFAA OPERATSIYASI

Qo'shining muayyan reja asosida o'tkazadigan harakati mudofaa operatsiyasıdir.

Mudofaa operatsiyasining maqsadi oldindan tayyorlangan muhandislik inshoatlariga joylashib, dushmanga katta talofot yetkazish hisoblanadi. Bunda raketa, yadro, aviatsiya hamda artilleriya zarbalaridan foydalilanadi. Jangovar jahbalarni saqlab qolish hamda hal qiluvchi qarshi hujumga o'tish uchun qulay sharoit yaratib berish ham mudofaa operatsiyasi hisoblanadi. Barcha mavjud qurollardan foydalanish mudofaa operatsiyasining muvaffaqiyatli olib borishga olib keladi. Bu vaqtida tez-tez manevr qilish zarur bo'ladi. Dushmanga qattiq zarba berish uchun mudofaa operatsiyasini puxta reja asosida o'tkazish kerak. Katta talofot dushmanga qarshi hujumga o'tish imkoniyatini yaratib beradi.

1-topshiriq. Matndan fe'l shakllari va qo'shma fe'llarni topib, daftaringizga ko'chiring.

2-topshiriq. Matnni gapirib bering.

MUDOFAA QOBILIYATINI MUSTAHKAMLASH

Davlat mudofaa qobiliyatining eng muhim qismi uning Qurolli Kuchlaridir. Ularning jangovar quadrati hamda bosqinchini qurolli mojarolar va urush boshlab yuborishdan tiyib turish vazifalarini bajarishga tayyorgarlik darajasidan hamda mamlakat hududiga bosqinchilik qilin-gan taqdirda oddiy qurol-yarog'larning har xil turlaridan foydalangan holda bosqinchini tor mor qilishdan iboratdir.

Bizning Qurolli Kuchlarimiz har qanday vaziyatda harakat qilishga tayyor turishi, mamlakatning jug'rofliy strategik mavqeini va hududining jug'rofik xususiyatlarini hisobga olgan holda ehtimol tutilgan bos-qinchiga quruqlikda va havoda munosib zarba bera olish uchun jangovar salohiyatga ega bo'imog'i zarur.

Qurolli Kuchlarning harbiy quadrati, jangovar qobiliyati ko'plab omillardan tarkib topadi.

1. Shaxsiy tarkibning miqdori va sifati. Bu sifat uning professional darajasi, axloqiy-ruhiy qat'iyati, jismoniy tayyorgarligi va intizomi bilan belgilanadi.

2. Qurolli Kuchlar harbiy quadrating eng muhim qismi bo'lgan qurol yarog'lar va harbiy texnikaning miqdori va sifati masalasi hisoblanadi.

3. Harbiy infrastruktura bo'lib qurolli kuchlardan jangovar holatda foydalanishda uning roli beqiyosdir.

Qurolli Kuchlarni barpo etish yillarida boshqaruva va aloqa tizimi, harbiy, ichki va texnikaviy ta'minot, xilma xil qo'shin turlarini joylashtirish tizimi umuman shakllanadi.

4. Hozirgi sharoitda xavfsizlik faqat kollektiv bo'lishi mumkin. U hamfikr davlatlaming birgalikdagi harakatlari bilan ularning imkoniyatlarini birlashtirish bilan ta'minlanadi. O'zbekiston BMT. YeXHT bayrog'i ostida tinchlikni qo'llab-quvvatlash sohasida amalga oshiralayotgan har qanday tadbirlerda ishtirok etmoqda. 1992 yil may oyida MDH davlatlari o'rtaSIDA shartnomaga tuzildi.

1994 yil iyul oyida O'zbekiston NATO ning «Tinchlik yo'lidagi hamkorlik» Dasturiga qo'shildi.

NATO mamlakatlarning tadbirlerida jumladan harbiy bo'linmalarning birgalikdagi mashqlarida qatnashish xuquqiga ega bo'ldi. Bu mamlakatimizning mudoafaa qobiliyatini yuksaltirishga yordam beradi.

1-topshiriq. Berilgan savollarga javob bering:

- 1) Milliy anniya niman6i toptirish yo‘lidagi muhim yutuq bo‘ldi?
- 2) Qurolli Kuchlar nimaning muhim qismi?
- 3) Uning vazifasi nimadan iborat?
- 4) Qurolli Kuchlar har qanday vaziyatda qanday bo‘lishi kerak?
- 5) Harbiy qudrat, jangovar qobiliyat qanday omillardan tashkil top-gan?
- 6) 1994 yil iyul oyida O‘zbekiston nimaga qo‘sildi?
- 7) NATO mamlakatlarining tadbirlari nimaga yordam beradi?

2-topshiriq. Matnda qanday fe'l zamonlari ishtirok etganini va o‘tgan zamon fe'lining qaysi turlari mavjudligim aniqlang. Fe'larni daf-taringizga guruhlarga ajratgan holda ko‘chiring.

HUJUM YO‘LLARI

Hujum jangovar harakatlarning asosiy turi hamda ataka ma'nosini bildiradi. Hujum quruqlikda, dengizda va havoda jang, harbiy operatiya va to‘qnashuv shaklida olib boriladi. Hujumning asosiy maqsadi-dushmanni batamom tor-mor qilish hamda muhim marra yoki hududni egallashdan iborat.

Hujum dushman mudofaasini, aning asosiy guruhlarining artilleriya-dan o‘t ochish, aviatsiya orqali zarba beradi. Shikastlantruvchi vositalar, shuningdek, tanklar va moto-o‘qchi qo‘shtinning shiddatli atakasi orqali yorib o‘tishdan boshlanadi. Yorib o‘tish oldidan o‘t ochib tayyor-garlik ko‘riladi. Hujum vaqtida o‘t ochuvchilar hujum qilayotgan qo‘shtin larga o‘t ochish bilan madad beradi. Agar dushman qismlarining yori tomonlari ochiq holatda bo‘lsa, hujum ularni o‘rab olish yoki ay'anib o‘tish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

1-topshiriq. Matndan fe'l nisbatlarini toping.

2-topshiriq. Fe'l nisbatlarining turini aniqlang.

3-topshiriq. Fe'l nisbatlarini rus tiliga tarjima qiling.

4-topshiriq. Matn mazmunini gapirib bering.

MANEVR

Manevr frantsuzcha so'z bo'lib, u harbiy ishda muayyan jangovar vazifani bajarishda dushmanga nisbatan qulay pozitsiyani egallash uchun qo'shinlaming bir joydan ikkinchi boshqa joyga tashkiliy suratda ko'chirilishini bildiradi.

Manevr o'tkazuvchi qo'shinlar tezkorlik bilan maxfiy harakat qilishlari, dushman tomonidan beriladigan har qanday zARBANI hisobga olish va uni qaytarishga tayyor turish vazifasini bajarishlari kerak. Shuningdek, ulardan asosiy yo'nalish bo'ylab shiddat bilan oldinga intilishlari va boshqalarni talab qilinadi.

Manevrning eng qulay usullari dushman qo'shinlarini aylanib o'tish va ularni iskanjaga olishdan iborat.

Manevrning jangovar harakatlarda imkoniyati va rolini oshirishda qo'shinlarning motorlashtirilishi va mexanizaisiyalashtirilishi, yadro qurolining paydo bo'lishi, aviatsiya hamda raketa qurollarining takomillashuvi muhim omil bo'ldi.

1-topshiriq. Matndan fe'l nisbatlarini toping.

2-topshiriq. O'zlik nisbatini va orttirma nisbatini alohida ajratib yozing.

3-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling va matnga savollar tuzing.

O'T OCHISH TURLARI

O't ochish artilleriya, tank, o'q otar qurollar va boshqa quroq tuijari dan amalga oshiriladi. O'q otar qurollari karabin (vintovka) dan yakka, avtomatdan qisqa, qatorasiga va to'xtovsiz o't ochiladi. Bo'lim, vzvod, ba'zan rotadan bir vaqtida o'q otish zalp bilan o't ochish deyiladi. O'q otar qurollari va to'plardan o't ochish ro'paradan turib o't ochish, yon tomonдан o't ochish va bir nishonga kamida ikki nuqtadan o't ochish kabi turlarga bo'linadi. Pulemyotdan, alohida to'p va tanklaming yaqin masaoferdan, aniq bir yo'nalish bo'ylab to'satdan o't ochish' to'g'riga kesib o't ochish deyiladi.

O't ochish quruqlik, dengiz va havodagi janglarda dushman kuchlarini yo'qotish vositasidir. O't ochishning kuchi, uning samaradorligi o'z vaqtida va tez o't ochib manevr qila olishi bilan belgilanadi. Uning samaradorligi aniq, to'satdan, yalpi o't ochishni mohirona boshqarishdan iborat. Bir nishondan ikkinchisiga muntazam yoki bir vaqtida o't ochish

va turli qurollardan muhim nishonlar yoki uchastkalarga o'q otish o't ochish manevr **deyiladi**.

1-topshiriq. Matndan fe'l nisbatlarini toping va daftaringizga ko'chiring.

2-topshiriq. Matnga savollar tuzing va savollarga og'zaki javob qaytaring

FUNDAMENTALIZM, TERRORIZM, EKSTREMIZM NIMA?

«Fundamentalizm» o'zi nima, qayerdan paydo bo'ldi. degan o'rinni savol tug'adi.

«Fundamentalizm» tushunchasi 1908 yili AQSh ning Koliforniya shtabda radikal protestantlarining «Xristian dinining fundamental tushunchalari Konferentsiyasi» uyushmasining vujudga kelishi bilan bog'lash mumkin. Ularning asosiy va bosh maqsadi Injilni sof holiga qaytarishni ko'tarish bo'lgan. Islom ekstremistik fundamentalizmining keng tarqalib borishining asosiy sabablaridan biri uning tashkilotlarning xilma-xilligi va sonining ko'pligidir. Ularning aksar qismi maxfiy holda ish yuritadi.

«Islom fundamentaliznii» iborasi ko'proq Rossiya va Fransiya davlatlarida mazkur shaklda istifoda qilinadi. AQSh siyosatdonlari bu atama o.'rnida **«ekstremizm va terrorizm»** so'zlarini qo'llaydilar.

Hozirgi fundamentalizm deganda, Islom fendamentalizmi nazarda tutilmoxda. Aslida fundamentalizm 20-asrda xristian «modernizm»ning rivojiga qarshi vujudga kelgan o'ziga xos xristian oqimiga berilgan nomdir.

Fundamentalistlar ko'p yillar davomida faqat xristian diniga nisbatan ishlataligan. 1970 yillarga kelib g'arbda olimlar va jamoatchilik turli jamiyatlarda bu atamani islom davlatlaridagi diniy tiklanish va jonlanish harakatlariga nisbatan keng qo'llay boshladi. 20 - asrning so'nggi choraqida islomning qayta jonlanish jarayoniga aloqador shaxslar va harakatlarni ham shu so'z bilan atashti.

Fundamentalizmning ikki qiyofasi mavjud: biri-insonlarni ezgu qadriyatlari asosida yashashga da'vat bo'lsa, ikkinchisi-mazkur da'vat os-tida hokimiyatga erishish yo'lida qon to'kishdan til tortmaslik.

Terrorizm – lotincha so'z bo'lib qo'rquv, vahima degan ma'nolarni bildiradi. Terrorizm o'zining noqonuniy maqsadlarini amalga oshirish

yo'lida kuch ishlatish, zo'ravonlik qiladi. Terrorizm bir qancha: fasizm, bolshevizm, anarxizm, esserchi kabi ko'rinishlarga ega.

Terrorchilik ikkita asosiy, ya'ni siyosiy terror va jinoiy terrorga bo'linadi. Siyosiy terrorchilik hamisha katta talofatga olib keladi. Chunki u konstituttsaviy tizimga qarshi qaratilgan ish tutadi. Jamiat birligiga, fuqorolar tinchligiga va davlatning barqarorligiga tahdid soladi. .

Ekstremizm deb o'ta chet harakatlarni qo'llaydigan kishilarga nisbatan aytildi. Ekstremistlar odatda terroristlar bilan birgalikda faoliyat ko'rsatadilar. Siyosiy yoki diniy, yoki qandaydir boshqa g'oyalalar orqasidan ergashib o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga kuchi ishlatish yo'li bilan erishiladigan kishilarga nisbatan ekstremist deyiladi. Ular qadimgi islam g'oyalari va an'analarini qayta tiklash shiori ostida terrorizmni uyushtiradilar.

Hozirgi davrdagi terroristlarning maqsadi dunyodagi barcha davlatlarni birlashtirib xalifalik davlati tuzishdan iborat.

1-topshiriq. Matnda uchragan fe'l nisbat va mayllarini toping hamda ularni birikma shaklida ko'chirib oling.

2-topshiriq. Notanish so'zlar lug'atini tuzing.

3-topshiriq. Matnni lug'at yordamida tarjima qiling.

OMMAVIY QIRG'IN QUROLLARI

Ommaviy qirg'in qurollari yalpi talofot yetkazish uchun qo'llaniladigan vositalar hisoblanadi. Unga yadro, ximiyaviy va bakteriologik (biologik) qurollar kiradi.

Ommaviy qirg'in qurollari xususiyatiga ko'ra barcha Jang qurollariidan ustun turadi. Ommaviy qirg'in qurollari turli jangda qo'llaniladi. Uni har qanday sharoitda hamda istalgan uzoqlikda qo'llash mumkin.

Ommaviy qirg'in qurollaridan yadro quroli eng qudratli hisoblanadi.

Ommaviy qirg'in qurollaridan mudofaa berilgan talafotni maksimal darajada kamaytirishga qarshi chora-tadbirlarni ko'zda tutadi. Masalan, shahar aholisining bir qismi xavfsiz yerga ko'chiriladi. Aholi himoya vositalari bilan ta'minlanadi. Xalq xo'jaligining beto'xtov ishlashi uchun shart-sharoit yaratiladi. Oziq-ovqat, suv, hayvonlar va o'simliklarni himoya qilish choralarini ko'riladi.

1-topshiriq. Matnda uchragan notanish so'zlarini ko'chirib yozing va rus tiliga tarjima qiling.

2-topshiriq. Mam mazmunini gapirib bering.

3-topshiriq. Matnda qanday yordamchi so'zlar borligini aniqlang va daftaringizga turiga ko'ra ajratib yozing. Ular ishtirokida o'zingiz gap tuzing.

OMMAVIY QIRG'IN QUROLLARIDAN HIMoya VOSITALARI

Shaxsiy tarkibni ommaviy qirg'in qurollarining shikastlovchi ta'siridan himoya qiluvchi predmet va inshootlar ommaviy qirg'in qurollaridan himoya vositalari ga kiradi.

Himoya qilish qurollari tuzilishi, xususiyatlari va ulardan foydalanan usuliga ko'ra individual hamda jamoa himoya vositalariga bo'linadi. Individual himoya vositalari kishi organizmi va terisiga radioaktiv, zaharovchi moddalar hamda bakteriologik vositalarning tu-shishidan saqlashda qo'llaniladi. Bu xil himoya vositalariga nafas organlari va terini himoya qiladigan moslamalar, kiyim-kechaklar kiradi. Nafas organlari protivogaz va respiratorlar yordamida zaharlanishdan saqlanadi. Terini himoya qilish vositalariga himoya to'plamlari (plashch. rezina etik va qo'lqop), kombinezonlar, yengil himoya kostyumlari va boshqa maxsus kiyimlar kiradi.

Jamoa himoya vositalariga pana joylar, radioaktiv zaharlanishdan yashirinish joylari kiradi. Pana joylar kishilarni yadro quroliming barcha shikastlovchi omillaridan, zaharovchi moddalar, biologik vositalardan himoya qiladi.

Pana joylar kishilami nurlanishning oldini oladi. Hayoni tozalovchi filtr-ventilyatsiya qurilmalari asosan qishloqlarda quriladi. Ular yashirinish joylarda shahar miqyosida bo'lmaydi.

1-topshiriq. Nuqtalar o'rniga tegishli (va, ham, uchun, bilan, ko'ra) yordamchi so'zlarini qo'yib chiqing.

Narsa . . . inshootlar, tuzilisRi . . . xususiyati, reaktiv . . . zaharovchi himoya qilish . . . , protivogaz va respiatorlar . . . , talofat etkazish . . .

2-topshiriq. Berilgan savollarga javob qaytaring.

1. Himoya qilish vositalariga nimalar kiradi?

2. Uning qanday turlari bor?

3. Indiaidul himoya vositalari nimalarni saqlashda ishlataladi?

HARBIY TOPOGRAFIYA

Harbiy topografiya topografiyaning bir tarmog‘i hisoblanadi. Harbiy topografiya jangovar harakat uchun jang maydoni haqida ma'lumot olish usullari va vositalarini o'rgatadi. Harbiy topografiya qo'shinlarni boshqarishda foydalanish uchun jang maydonining topografik xaritasi, aerofotosuratlari va shunga tegishli boshqa hujjatlarni o'rGANISHNI o'z ichiga oladi. Shuningdek, joylarda razvedka olib borish yo'l-yo'riqlari, usullari, qurollardan otish, muhandislik inshoatlarini qurish maqsadida va zarur ma'lumotlami toplash uchun jang maydonini o'lchash, texnik vositalar hamda metodlarni, qo'shining jangovar harakatlarini topografik, geodezik ma'lumotlar bilan ta'minlash asoslarini o'z ichiga oladi.

1-topshiriq. Matnni gapirib bering.

2-topshiriq. Matnda qo'llanilgan ko'makchi so'zlarni toping va ular ishtirokida o'zingiz gaplar tuzing.

AZIMUT BO'YICHA HARAKAT

Azimut deganda kuzatish joyining meridian tekisligi bilan kuzatilayotgan ob'ektdan o'tgan vertikal (tik) tekislik orasidagi burchak tu-shuniladi. Azimut gorizontning janubiy nuqtasidan g'arba tomon o'lchanadi. Azimutni magnitli kompas yordamida aniqlash mumkin.

Magnitli kompas dengizda kemaning yoki osmonda samolyotning koordinatalarini, joylarning jug'rofiy parametrlarini aniqlashda ishlataladi. Magnit strelkasi (mili) magnitli kompasning asosiy qismi hisoblanadi. Magnitli kompasda magnitlangan mili shimol janub yo'nalishida magnit meridiani bo'ylab joylashgan bo'ladi.

Magnit yordamida azmutni aniqlash uchun kompas bilan mo'ljallangan joy, predmetga yuzlangan holatda turish kerak. Bunda kompasni shunday tutish kerakki, vizir chizig'i mo'ljallangan joy, predmet yo'nalishi bilan kesishgan bo'lsin. Shunday holatda limb

mo'ljalda utilgan ko'rsatkich qarshisida magnit azimutining iniqdotini (raqamiii) belgilab beradi. Aksincha teskari azimutda mo'ljallangan predmet (joydan) to'xtab turilgan nuqta tornon yo'nalishni ko'rsatadi. U to'g'ri azimutdan 180 darajaga farq qiladi. Shu sababli 180 darajani to'g'ri azimut soniga qo'shiladi. Agarda u kam songa ega bo'lsa ayrildi. Kompas bilan ishlayotganda, u chap qo'lida ko'zdan 10 sm. pastda bo'lishi kerak. Tirsak biqinga tirsalgan holatda bo'lishi talab qilinadi.

1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

2-topshiriq. Gapda so'z tartibini aniqlang.

XARITASIZ HUDUD (JOY) LARNI ANIQLASH YO'LLARI

Harbiy holat vaqtida qo'shin hamda dushmanning joylashgan o'mini aniqlash muhim vazifa hisoblanadi. Notanish, noma'lum yerda tez va aniq mo'ljal olish jangovar topshiriqni muvaffaqiyatli bajarishga asos bo'ladi. O'rmon yoki cho'l va sahroda bo'ladimi, tog' yoki adirda topografik xarita va xaritasiz mo'ljalni taxminan olish mumkin.

Xarita bo'limgan vaqtida kerakli joy (predmetni)aniqlash uchun ufq tomonni topish harakatni samarali bo'lishiga olib keladi. Ufqni topishda sharoitga qarab, kunduz yoki tunni e'tiborga olib, kompas, quyosh, yulduzlarning joylashishi, mahalliy hududdagi narsa va predmetlardan foydalanish mumkin.

1-topshiriq. Matnga savollar tuzing va og'zaki javob qaytaring.

2-topshiriq. Birinchi xat boshidagi 3 ta gapni daftaringizga ko'chiring va ularni sintaktik jihatdan tahlil qiling.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ СТОРОН ГОРИЗОНТА

В зависимости от характера местности, времени суток и видимости сторон горизонта определяется по компасу, по положению солнца, по солнцу и часам, по Полярной звезде, по признакам местонахождения предметов.

Для определения сторон горизонта по компасу, принцип действия которого основан на свойстве номагнитенной стрелки располагаться вдоль магнитного меридиана север-юг, необходимо ориентировать компас. Для этого надо установить компас в горизонтальное положение и растормозить стрелку. Поворачивая компас, добиться чтобы северный конец магнитной стрелки оказался против нулевого деления лимба. В ориентированном положении компаса направление стрелки на нулевое деление лимба будет направлением на север. При определении сторон горизонта по Солнцу и часам необходимо установить часы в горизонтальное положение, чтобы часовая стрелка была направлена на Солнце. Затем, удерживая часы в этом положении мысленно разделить угол между часовыми стрелкой и цифровой $1/2$ / пополам. Полученная прямая укажет приближенно направление на юг. До полудня надо делить пополам дугу /угол/ на цеферблите, которую часовая стрелка должна пройти до $13/14$ / часов, а после полудня дугу, которую она прошла после $13/14$ / часов.

Для определения сторон горизонта по Полярной звезде необходимо на небесном своде найти созвездие Большой Медведицы. Затем отрезок прямой между двумя крайними звездами «ковша» мысленно продолжить сторону расширенной его части и отложить пять раз. Полученная точка укажет положение Полярной звезды, которая входит в созвездие Малой Медведицы и всегда находится в направлении на север.

1-topshiriq. Lug'at tuzing.

2-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

ДОКЛАД О СВОЕМ МЕСТОНАХОЖДЕНИИ

При докладе о своем местонахождении относительно местных предметов после определения стороны горизонта необходимо называть местный предмет, непосредственно у которого находится докладывающий, и расстояния до местных предметов, указывающих направления стороны горизонта. Например: «Нахожусь на северной опушке леса: севернее 600 м- заводская труба, западнее 200 м-хутор, южнее 300м- река, восточнее 500 м-дорога.

1-iopshiriq. Lug'at tuzing.

2-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

JANGOVAR HUJJATLAR

Jangovar harakatlar qilish, ularni tayyorlash va uyuştirish. qo'shirlarning siljishi hamda o'tganishga doir hujjatlar jangovar hujjatlar deb yuritiladi. Jangovar hujjatlarga qo'shirlarni boshqarishga aloqador hujjatlar, ya'nı operativ direktiva, jangovar buyruq, farmoyishlar, reja, ish xaritalari, sxemalar kiradi. Axborot-hisob hujjatları. ma'lumot beruvchi hujjatlar ham jangovar hujjatlarni tashkil qildi.

Xabar, ma'lumot, hisobot, jangovar harakat jurnallari hjsobot xaritalari, sxemalar axborot-hisob hujjatlar tarkibiga, ma'lumot beruvchi hujjatlar qatoriga esa har xil hisob, qaydnama, jadval, sxema ma'lumot va h.k. kiradi. Ular yozma, chizma, fotosurat, fotogramma hamda magnit lentalariga yozib olingen tarzda bo'lishi mumkin. Ba'zan to'ldirilgan namunaviy blankalar, topografik xaritalar vaziyat haqida aniq ma'lumot berishi bilan jangovar hujjatlar ichida alohida ahamiyat kasb etadi. Hujjatlarni tuzishda ustav va qo'llannralarga amal qilish kerak.

1-topshiriq. Notanish so'zlarni matndan toping va ularni rus tiliga tarjima qiling.

2-topshiriq. Matn mazmunini gapirib bering.

XIZMAT VARAQALARI

Xizmat varaqalari:

- a) rotada xizmat qilayotgan askar va serjantlarga;
- b) harbiy qism shtabida-praporhik va ofitserlarga;

V) kemerlerda esa kema komandirining yordamchisi tomonidan barcha shaxsiy tarkibga ochiladi.

Harbiy qism va qo'shin komandirlariga, shuningdek Oliy Ofitserlarga xizmat varaqasi yuqor'i turuvchi shtabda ochiladi.

Har bir harbiy xizmatchi Nizomga muvofiq yilliga bir marta, shuningdek, yangi joyga ko'chganda o'z xizmat varaqasi bilan tanishib chiqishi va unga o'z imzosini qo'yishi lozim.

1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

2-topshiriq. Xizmat varaqasi, ustavga muvofiq, barcha tashkilot, man etiladi, chora ko'rish birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

TAKLIF, ARIZA VA SHIKOYATLAR TO'G'RISIDA

Harbiy xizmatda barcha tashkilot va muassasalarda ishlataladigan ariza, taklif va shikoyatlardan foydalanilaai. U ko'proq huquq hamda imtiyozlarning buzilishi, sharoitning qoniqarsizligi to'g'risidagi o'ringa ega bo'ladi.

Harbiy xizmatchilarining shikoyat qilishiga to'sqinlik qilish, burring uchun jazo'lash, ta'qibga olish yoki xizmat paytida tahqirlash man etiladi.

Komandir (boshliq) taklif, ariza, shikoyatlarga diqqat bilan yondoshishi kerak. Tushgan taklif, ariza, shikoyatni ikki hafta ichida ko'rib chiqishi shuningdek, bartaraf etish choralarini ko'rishi, hujjalardagi ma'lumotlardan to'la foydalanish lozim.

Harbiy xizmatchilarining taklif, ariza va shikoyatlari bo'yicha qaror qabul qilinadi. Barcha taklif, ariza, shikoyatlar maxsus daftarga qayd etib boriladi:

BANDI QILISH TO'G'RISIDAGI HUJJAT

Harbiy intizomni buzganı va ma'muriy qonunbuzarlik uchun harbiy xizmatchi shaxsan javobgar.

Harbiy xizmatchi agar harbiy intizomni buzsa yoki ma'muriy qonunbuzarlik qilinsa komandir zaruriyat taqozosi bilan intizomiy ta'zir berishi mumkin. Bunday vaqtida nojo'i hatti-harakatning og'irligi va aybiga qarab jazo beriladi. Jumladan, gaupvaxtada ushlab turi uchun bandi qilish chorasi belgilanishi mumkin. Bandi qilish eng og'ir jazo hisoblanib, u boshqa choralar samarasiz bo'lganda qo'llaniladi. Bandi qilish haqidagi hujjat komandir (boshlig) tomonidan tayyorlanadi. Bandi qilish to'g'risidagi hujjat quydagi ko'rinishga ega.

Old tomon

«__» yil «____»
____ rota (komanda) _____

Lavozim

Harbiy unvon _____

Familiya.ism, otasining ismi

Kim tomonidan va qachon bandi
qilingan
Bandilik sababi _____
Qancha muddatga bandi
qilingan _____

Qaysi kameraga qamalgan _____

Qachon hammomga yuboriladi _____

Shifokorning xulosasi

Rota (komanda) boshligi _____
(harbiy unvon, ism, familiya)

Harbiy qism muhri _____

Orqa tomon

Bandi qilinganning buyumlari _____
Rota (komanda) komandiri _____
(harbiy unvon, ism, familiya)

1-topshiriq. Matndan aniqbvchi-aniqlanmish, masalan, harbiy intizom shaklidagi birikmalarni toping va daftaringizga ko‘chiring. So‘ng rus tiliga tarjima qiling.

2-topshiriq. Harbiy mavzuda ariza namunasini yozing.

HARBIY QISM (KEMA) HURMAT KITOBI

Harbiy xizmatchilarni tarbiyalashning va harbiy intizomni mustahkamlashning muhim vositasi rag‘batlantirishdir. Bu o‘rinda soldat, matros, serjant, starshinalarni Hurmat Kitobiga kiritishning ahamiyati katta. Hurmat kitobi o‘z o‘rnida muhim hujjat hisoblanadi. U barcha brigadi (polk) larda, alohida harbiy qismlarda, kemalarda yuritiladi.

Hurmat kitobiga kiritish harbiy qism (kema) bo‘yicha buyruq asosida amalga oshiriladi. Hurmat Kitobida harbiy xizmatchining surati, uning yutuq yoki jasorati haqida qisqacha tafsilot beriladi.

Hurmat kitobining ahamiyati va barcha shaxsiy tarkib a’zolarining tanishishlariga qulay ligidan kelib chiqib saqlash uchun joy tanlanadi.

1-topshiriq. Matnga savollar tuzing va savollarga javob qaytaring.]

2-topshiriq. Hurmat kitobiga kiritish uchun yoziladigan «Tavsiyanomha» namunasini yozing.

Toshkent Oliy Umumiqo'shin Qo'mondonlik Bilm Yurti

1) Toshkent Oliy Umumiqo'shin qo'mondonligi bilim yurti tashkil topishi?

Uning fakultetlari haqida gapirib bering?

2) Toshkeht Oliy Ummumiqo'shin qo'mondonligi bilim yurtida qanday mutaxasislar taylorlaydi?

Maxsus fakultet

2-topshiriq.

1) Maxsus fakultetning asosiy maqsad vazifalari?

2) Maxsus fakultet bazasisida qanday kadrlar taylorlanadi?

3) Fakultetning chet el bilan aloqalari?

O'zbekistonning jug'rofiy o'rni, aholsi va ijtimoiy tuzulishi

Jug'rofiya-

Chegaradosh-

Pasttekislik-

Tekislik-

Tropik-

Iqlim-

Qurolli kuchlar

Qurolli kuchlarning paydo bo'lishi va ularning shaklanishi bosqichlari?

Fan texnika taraqiyoting qurolli kuchlarga tasiri?

Xozirgi zamon armiyasi xaqida?

Aviatsia qurollari

Apparat-

Qulay-

Mustxkam-

SHatak-

Nishon-

Aloqa-

Harbiy dengiz floti

2) topshiriq:

- 1) Harbiy dengiz flotining asosiy vazifasi?
 - 2) Suv usti va suv osti floti qanday qurollar bilan taminlangan?
 - 3) Harbiy dengiz floti qanday qismlardan iborat?
 - 4) Dengiz piyodalari tarkibi?
- 3) topshiriq:

Flot-

Ob`yekt-

Baza-

Jangovar-

Quruqlik-

Qurulma-

Harbiy o`quv yurtlari

2 topshiriq:

Tur-

Yetkazmoq-

Muhandis-

Tarkib-

Tayyorlamoq-

Rahbar-

Lavozim-

Harbiy ta’lim

1 topshiriq:

Maxsus-

Ijtimoiy-

Rivojlanish-

Tinglovchi-

Kadr-

Oliy-

Xususiyat-

Taktika-

Harbiy-texnika-

Boshlang‘ich-

2 topshiriq: Harbiy talimini asosini nima tashkil etadi?

Harbiy ta’limni paydo bo‘lishi va uni rivojlanish tarixi?

Harbiy ta’limning eng yuqori bosqichi?

3 topshiriq: Qurolli, harbiy, o‘qitmoq, soha, bog‘liq, qo‘sishin, o‘quv, qo’llamoq, qirg‘in qurollar, saqlanmoq, iqtisodiy, boshlang‘ich, qism.

Harbiycha salomlashish

2-topshiriq: Aniq,qaddini, bajariladi, berish, oshirilishi, mumkin, hizmatchining, bilan, buriladi, tartib, bir, tashqarida, karabin.

3-topshiriq: Bo‘lgan, qo’llar,to‘g‘ri,o‘ng.

O‘ng qo‘ling bilan qilgan yaxshiligungni chap qo‘ling bilmasin.

Kasb odobi

Kasb-

Qoida-

Urf-odat-

Meyor-

Tashqi-

Vatan-

Kasb odobi – inson hayotidagi o‘rni haqida gapirib bering?

Jamoat joylarida, odamlar orasida o‘zini tuta bilish?

Harbiylarning o‘zga soha kishilari bilan munosabati va o‘zini tutishi?

MUNDARIJA

SALOMLASHISH ODOI	3
KASB ODOI	4
HARBIYCHA SALOM BERISH	5
HARBIY TA'LIM	6
HARBIY O'QUV YURTTLARI	7
MAXSUS FAKULTET	8
HARBIY SAN'AT	9
HARBIY INTIZOM	10
O'ZBEKISTONNING JUG'ROFIY O'RNI, AHOHLISI VA IJTIMOIY TUZILISHI	11
QUROLLI KUCHLAR	12
O'ZBEKISTONNING QUROLLI KUCHHLARI	13
QUROLLI KUCHLARNI KOMPLEKLASH (TO'LDIRISH)	14
MILLIY GVARDIYA	15
QO'SHIN VA UNING TURLARI	16
HARBIY-HAVO KUCHLARI	17
AVIATSIIYA QUROLLARI	18
HARBIY-DENGIZ FLOTI	18
CHEGARA QO'SHINLARI	19
MARKAZIY OSIYO VA AMIR TEMUR DAVRIDA ARMIYA	20
QURUQLIKDAGI QO'SHINLAR	21
BRONETANK QO'SHINLARI	22
MOTOQ'CHI QO'SHINLAR	23
ARTILLERIYA	23
AVTOMAT QUROL	25
AVIADESANT TANKI	26
MINOMYOT	26
RANATA	27
BRONETRANSPOSTER	28
TO'P (ZAMBARAK)	29
QO'SHINLARNING JANGOVAR TAYYORGARLIGI	30
GAUBITSA	30
MAXSUS QO'SHINLAR	31
MUHANDISLIK QO'SHINLARI	31
RADIOTEXNIKA QO'SHINLARI	32
AVTOMOBIL QO'SHINLARI	33
YO'L QO'SHINLARI	34
TEMIR YO'L QO'SHINLARI	34
MUDOFAA	35
MUDOFAA DEVORLARI	36
MUDOFAA QOBILIYATINI MUSTAHKAMLASH	37
QUROLLI KUCHLARNING SAFARBARLIGI	39
JANGOVAR SHAYLIK	40
JANGOVAR VAZIYAT	40
JANGOVAR TREVOGA	41
JANGOVAR NAVBATCHILIK	41
KOMANDIR (BOSHLIQLAR)NING UMUMIY MAJBURIYATLARI	42
MUDOFAA	43
MUDOFAA INSHOOTLARI	44
MUDOFAA DEVORLARI	44
MUDOFAA OPERATSIYASI	45

MUDOFAA QOBILIVATINI MUSTAHKAMLASH	46
HUJUM YO'LLARI	47
MANEVR	48
O'T OCHISH TURLARI	48
FUNDAMENTALIZM, TERRORIZM, EKSTREMIZM NIMA?	49
OMMAVIY QIRG'IN QUOLLARI	50
OMMAVIY QIRG'IN QUOLLARIDAN HIMOYA VOSITALARI	51
HARBIY TOPOGRAFIYA	52
AZIMUT BO'YICHA HARAKAT	52
XARITASIZ HU'DUD (JOY) LARNI ANIQLASH YO'LLARI	53
ОПРЕДЕЛЕНИЕ СТОРОН ГОРИЗОНТА	54
ДОКЛАД О СВОЕМ МЕСТОНАХОЖДЕНИИ	55
JANGOVAR HUJJATLAR	55
XIZMAT VARAQALARI	56
TAKLIF, ARIZA VA SHIKOYATLAR TO'G'RISIDA	56
BANDI QILISII TO'G'RISIDAGI HUJJAT	57
HARBIY QISM (KEMA) HURMAT KITOBI	58
TOSHKENT OLIY UMUMQO'SHIN QO'MONDONLIK BILM YURTI	59

MAXSUS FAKULTET TALABALARI UCHUN O'ZBEK TILIDAN QO'LLANMA

Muhammadiyev: Abdullaeva S.X.
 Sahifalovchi: Umarova K.X.

Bosishga ruxsat etildi: 01.07.2014. Bichimi 60x84/16
 Times garniturası. Ofis qog'ozı. Printerda chop etildi
 Shartli.b.t.:4,0 . Adadi: 50. Zakaz: № 3.

"IXTIYOR RISO PRINT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi
 Korxonalar manzili Chilonzor tumani, 22-mavze, 18-uy